

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/04.06.2021 Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**AHMADOVA UMIDAXON SHAVKAT QIZI**

**HUNARMANDLAR NUTQI PERIFRAZALARINING  
SOTSIOPRAGMATIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Filologiya fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора наук (DSc) по филологическим  
наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc) on philological  
sciences**

**Ahmadova Umidaxon Shavkat qizi**

Hunarmandlar nutqi perifrazalarining sotsiopragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari .....	5
---	---

**Ахмадова Умидахон Шавкат кизи**

Социопрагматические и лингвокультурные особенности períфраз речи ремесленников.....	31
---	----

**Ahmadova Umidakhon Shavkat kizi**

Sociopragmatic and linguistic features of the periphrasis of craftsmen' speech ....	63
---	----

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ
-----------------------------

List of published works .....	68
-------------------------------	----

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/04.06.2021 Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**AHMADOVA UMIDAXON SHAVKAT QIZI**

**HUNARMANDLAR NUTQI PERIFRAZALARINING  
SOTSIOPRAGMATIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/Fil538 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (buxdu.uz) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Abuzalova Mehriniso Kadirovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Jo‘rayeva Bibish Muxsinovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Raupova Laylo Rahimovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Abdiyev Murodqosim Bolbekovich**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “13-” yanvab soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14; faks: +99865 221-27-07, e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (8.11 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “26-” dekelabz kuni tarqatildi.

(2025-yil “26-” dekelabz dagi 29 - raqamli reyestr bayonnomasi).



**Y.S. Saidov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**A.R. Axmedov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, filologiya fanlari nomzodi, professor

**B.E. Kilichev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rmosari,  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

## **KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi (DSc) annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda sodir bo‘layotgan globallashuv jarayonlari nafaqat insoniyat hayotida o‘zgarishlarni, balki kommunikativ vazifaga xoslangan tilda ham o‘z aksini topmoqda. Soha leksikasi ham xalq tarixi va til tarixi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, milliy til, xalqning iqtisodiy-ijtimoiy hayoti, madaniy-ma’naviy munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi lisoniy manba hisoblanadi. Perifrazalar va unga yondosh bo‘lgan uslubiy vositalardan foydalanish muammolari dunyo olimlarini hamisha o‘ziga jalb qilib kelganki, bu hali ham dolzarbligini yo‘qotgan emas. Qolaversa, perifraza hodisasini har tomonlama o‘rganish muhimligi, ayniqsa, so‘nggi paytlarda, tilshunoslar til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga tobora ko‘proq e’tibor qaratayotgan bir paytda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ikkilamchi nom, qayta nomlash bilan bog‘liq bo‘lgan nominatsion (perifrazalar, evfemizmlar kabi) hodisalar millatning madaniy qadriyatlarini va jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni asosiy nominatsion birliklarga qaraganda sezilarli va yorqinroq aks ettirishi tufayli mazkur ikkilamchi nomlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Dunyo tilshunosligida kasb-korni ifodalovchi hunarmandchilik leksikasi, xususan, hunarmandlar faoliyati bilan bog‘liq holda ishlataladigan tasviriy ifodalar til va dialektlarning rivojlanish hamda shakllanish tarixiga tegishli bir qator masalalarni hal qilishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Perifrastik birliklarda ma’lum bir xalqning g‘oyaviy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy, etnik tarkibi va kelib chiqishi hamda boshqa hodisalarga tegishli jihatlar yaqqol aks etishi bois hunarmandlar muloqotida qo‘llanadigan perifraza (tasviriy ifoda) mazkur kasb egalari tili hamda madaniyati to‘g‘risida ham muhim ma’lumotlarni berishi bilan ahamiyatlidir. Bu esa, har bir ijtimoiy qatlam nutqida alohidalik kasb etadigan lingvomadaniy birlik, ya’ni perifrazalarning nutqni bezovchi tasviriy vosita sifatida sotsial xoslanishini tadqiq etish va uning xususiyatlarini chuqur o‘rganish zarurligini belgilaydi.

O‘zbek leksik qatlamida professional atamalar, jumladan, predmetning ma’lum bir belgisini ko‘rsatish uchun uni yangicha nom bilan atashga xoslangan perifrazalar ham ma’lum bir tarixiy davr mahsuli bo‘lmay, ular asrlar davomida shakllanib lisonda faollashgan. Muayyan predmet, hodisa, voqelik yoki tushuncha nomini bilvosita atovchi tavsifiy nutq iboralarining pragmatik xususiyatlari, o‘rni kelganda, asosiy nomlovchi birliklarga nisbatan kuchliroq ekanligi seziladi. Bundan tashqari, ularning baholash va ta’sir qilish funksiyalari aniqroq bo‘lib, kerakli natijaga tezda erishish imkonini beradi. Lingvomadaniy belgilarga ega mazkur til vositalari nutqiy muloqotda pragmatik jihatdan muhim rol o‘ynaydi. “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”<sup>1</sup>. Bu esa, bugungi kunda texnika rivoji bilan aloqadorlikda takomillashayotgan hunarmandchilikka doir lisoniy birliklarning talqini, soha tilining genetik manbalari, boyish omillari,

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni// 2019-yil 21-oktabr. <https://lex.uz/docs/4561730>

hunarmandchilikka doir leksik qatlamning ikkinchi nomlovchilari sanalmish perifrazalarning leksikografik tavsifi, lingvomadaniy jihatlari kabi masalalarning o‘rganilishini taqozo etadi hamda mavzuning dolzarbligi va zaruratini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari; 2020-yil 29-yanvardagi 40-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 28-noyabrdagi PQ-4539-son “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga 2022-yil 12-dekabrdagi Murojaatnomasi, shuningdek, boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiyaning ilmiy natijalari ma’lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar hamda innovatsion rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.** Perifrazeologiya va matnni sotsiopragmatik aspektida tadqiq qilishga qaratilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari hamda oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Cambridge University, University of Oxford, London Metropolitan University (Buyuk Britaniya), Toronto University (Kanada), M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya), Sankt-Peterburg universiteti (Rossiya), Tatariston Kazan federal universiteti (Rossiya), Qozoq milliy universiteti (Qozog‘iston), shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zR FA til, adabiyot va folklor ilmiy-tadqiqot instituti, Farg‘ona davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti (O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

Dunyo tilshunosligida ikkilamchi nominatsiya nazariyasini, nominatsiyalarni sotsiopragmatik, lingvokulturologik aspektida tadqiq qilish, xususan, soha terminologiyasini lingvomadaniy, leksikografik va turli jihatlardan yoritishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar natijasida ilmiy ahamiyatga molik xulosalar chiqarilgan

<sup>2</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida amalga oshirildi: [https://ijllnet.com/journals/Vol\\_2\\_No\\_1\\_March\\_2015/11.pdf](https://ijllnet.com/journals/Vol_2_No_1_March_2015/11.pdf); <https://www.academypublication.com/issues/past/tpls/vol01/11/04.pdf>; <https://www.ccsenet.org/journal/index.php/ijel/article/view/0/42036>, <https://scholarlypublications.universiteitleiden.nl/access/item%3A2945219/download>; <https://ijllnet.;www.pushkin.institute.ru, www.lingvolve.com/ru;> [www.dictionary.com](http://www.dictionary.com); [www.merriam-webster.com](http://www.merriam-webster.com); [www.macmillandictionary.com](http://www.macmillandictionary.com); [www.learnersdictionary.com](http://www.learnersdictionary.com); [www.oxfordadvancedlearnersdictionary.com](http://www.oxfordadvancedlearnersdictionary.com); [www.en.wikipedia.org](http://www.en.wikipedia.org); [www.learnenglishkids.britishcouncil.org](http://www.learnenglishkids.britishcouncil.org); [www.multitran.ru](http://www.multitran.ru)

(Pyatigorsk davlat lingvistika universiteti, Tatariston Kazan federal universiteti (Rossiya), shuningdek, dunyo lisoniy manzarasida turli til birliklarining o'rni, jumladan, badiiy tasvir vositalarining sotsiopragmatik tadqiqi masalasi bo'yicha muayyan tahlillar o'tkazilgan (MDH).

Jahon tilshunosligida shakllanayotgan perifrazeologiya bo'yicha quyidagi yo'naliishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: lisoniy hodisaning tarjima muammolari tadqiqi, diskursiv-sotsiopragmatik xususiyatlari, badiiy matnda mavjud tasvir vositalarining sotsiopragmatik tipologiyasi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dunyo tilshunosligida perifraza hodisasi e'tirof etilgan va jiddiy o'rganilgan ishlar XX asrning 50-yillarida yuzaga kelgan. Aristotel, Kvintilian tomonidan qayd etilgan ushbu hodisa I.Z.Illina, V.P.Utkina, Sh.Balli, V.G.Kostomarov, V.N.Teliya, Y.N.Karaulov, A.B.Novikov, N.D.Arutyunova, Y.A.Belchikov, Y.A.Zemskaya, O.P.Yermakova, L.P.Krisin, D.B.Gudkov, F.B.Albrext, G.Y.Solganik, T.I.Biteva, V.P.Moskvin, N.I.Klushina, A.N.Baranov, D.O.Dobrovolskiy, O.S.Issers, M.N.Kojin, L.V.Grechnyova, O.N.Parshina<sup>3</sup> kabilarning ilmiy izlanishlarida tadqiq qilingan.

Rus tilining leksik-semantik jihatdan shakllanishida o'zining munosib hissasini qo'shgan V.V.Vinogradov "Russkiy yazik" (1938) darsligida perifrazalarni leksik-semantik variantlar, sintaktik konstruksiyalarni semantik kategoriyalar nuqtayi nazaridan tahlil qilib, ularning ma'no xususiyatlarini ochib bergan<sup>4</sup>. L.V.Shcherba esa, nutqiy faoliyatda perifrazalarning o'rni haqida o'zining fikr-mulohazalarini bildirib o'tgan<sup>5</sup>. "Proisxojdenie i razvitiye russkogo yazika" (1972) asari muallifi D.N.Shmelev perifrazalarning tilning tarixiy taraqqiyotida qanday rivojlanganligi

<sup>3</sup> Ильина И.З. Перифраз и его стилистические функции в произведениях английской художественной литературы. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Москва, 1954. – С. 24.; Уткина В.П. Перифрастический оборот в русской художественной литературе // Известия Крымского педагогического института им. М.В.Фрунзе. – Симферополь, 1959. – Т. 33, Вып. 1. – С. 87-109.; Балли Ш. Французская стилистика. – Москва: Эдиториал УРСС, 2001. – С. 392.; Костомаров В.Г. Языковой вкус эпохи: из наблюдений над речевой практикой масс-медиа. – СПБ: Златоуст, 1999. – С. 319.; Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, pragmaticеский и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Языки русской культуры, 1996. – С. 286.; Карапулов Ю.Н. От грамматики текста к когнитивной теории дискурса. – Москва, 1989. – С. 5-11.; Новиков А.Б. Словарь перифраз русского языка (на материале газетной публистики). – Москва: Рус.яз., 2004. – С.352.; Арутюнова Н.Д. Номинация, референция, значение. – Москва: Наука, 1977. – С. 188-206.; Бельчиков Ю.А. Перифраза. – Москва: Большая русская энциклопедия, 1997.; Земская Е.А. Языковая игра. Русская разговорная речь: Фонетика. Морфология. Лексика. Жест. – Москва, 1983. – С. 172-214.; Ермакова О.П. Лексические значения производных слов в русском языке. – Москва: Рус.яз., 1984. – С. 152.; Крысин Л.П. Современный русский язык. Лексическая семантика. Лексикология. Фразеология. Лексикография. – Москва: Академия, 2007. – С. 240.; Гудков Д.Б. Прецедентное имя и проблемы прецедентности. – Москва: МГУ, 1999. – С. 152.; Альбрехт Ф.Б. Проблема определения и описания единиц зоны лексико-фразеологической переходности // Филол. науки. – № 3. – 2001. – С. 66-73.; Солганик Г.Я. Практическая стилистика русского языка. – Москва: Академия, 2006. – С. 304.; Бытева Т.И. Основы лингвистической теории перифразы – Красноярск, 2004. – С. 210.; Москвин В.П. О разновидностях перифразы // Русский язык в школе. – № 1. – 2001. – С.72-78.; Клушина Н.И. Стилистика публицистической речи. – Москва: МедиаМир, 2008. – С. 244.; Баранов А.Н. Аспекты теории фразеологии. – Москва: Знак, 2008. – С. 656.; Добровольский Д.О. Ассоциативный фразеологический словарь русского языка. – Москва: Поморский и партнеры, 1994. – С. 116.; Иссерс О.С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи. – Москва: ЛКИ, 2008. – С. 288 с.; Кожин А.Н. Перифраза как стилистическое средство публицистической речи. – Москва, 1964. – С. 48-65.; Грехнева Л.В. Перифраза и смежные лингвистические явления. – Новгород, 1997. – С. 131-138.; Паршина О.Н. Российская политическая речь: теория и практика. – Москва: Либроком, 2012. – С. 232.

<sup>4</sup> Виноградов В.В. Русский язык. – Москва: Учпедгиз, 1938. – С. 64.

<sup>5</sup> Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. Изд. 3-е стер. – Москва: Издательство ЛКИ, 2007. – С. 74.

borasida o‘z fikrlarini berib o‘tgan<sup>6</sup>. Bugungi kunga kelib, tasviriy ifodalarga yondashuvlar ham ortganki, zamonaviy rus tilshunoslari tomonidan perifrazalarning psixolingistik xususiyatlari, kognitiv tabiatni va axborot yetkazishdagi roli lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etilmoqda.

Shuningdek, yana bir qator o‘zbek tilshunoslari A.Rustamov, M.Sodiqova, B.Yo‘ldoshev, Sh.Shoabdurahmonov, L.Shukurov, M.To‘ychiyev, T.Jo‘rayev, R.Suvonova, D.O‘rinboyeva, A.Pardayev, H.Shamsiddinov, D.Aytboyev, R.Normurodovlar<sup>7</sup> ham tasviriy vositalarning muayyan qirralarini o‘rganib, asosan, perifrazalarning umumiy xususiyatlarini aytib o‘tish bilan chegaralanganlar. I.Umirovning “O‘zbek tili perifrazalari”<sup>8</sup> (1996) nomli tadqiqot ishida mazkur til hodisasining til va nutqqa bo‘lgan munosabati monografik yo‘sinda o‘rganilgan. U.Ahmadova “Perifrazalarning sotsial xoslanishi”<sup>9</sup> (2021) mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida perifrazalarning leksik-semantik, uslubiy-funksional, ijtimoiy-kasbiy, milliy-etnik xususiyatlarini tadqiq etgan bo‘lsa, A.Qobilova tibbiy perifrazalarni qardosh bo‘lmagan tillar kesimida lingvomadaniy jihatdan tahlilga tortdi. Biroq hunarmandlar nutqi leksikasi, hunarmandchilik sohasi perifrazalarining alohida tadqiqi amalga oshirilmagan.

Hunarmandlar leksikasi xalqning kundalik turmush tarzi bilan aloqador bo‘lgani sababli, uning tarixiy etimologik asosi, lug‘aviy qatlamlari dialektal leksika bilan chambarchas bog‘lanadi. Jumladan, M.Xudayarova Qoraqalpog‘iston shevalari asosida taom nomlarini, A.Omonturdiyev chorvadorlar nutqi misolida professional evfemizmlarni, Sh.Norbayeva Xorazm shevalari misolida kiyim-kechak nomlarini, M.Abdiyev Samarqand viloyati kasb-hunarlari materiallari asosida sohaviy leksikani sistem asoslarda tadqiq etishdi<sup>10</sup>. S.Kenjayeva kasb-hunar nomlari lug‘aviy asos qilib olingan, bolani yaxshi kasb, hunar egasi, sohibi bo‘lish istagi motivatsiyasi asosida yuzaga kelgan ismlarni istak ismlar sirasiga kiritdi va ularni sohaviy mansubligi nuqtayi nazaridan chorvadorlik, dehqonchilik, ovchilik, ipakchilik, tikuvchilik, zargarlik, chevarlik, savdo-sotiq, ustachilik, duradgorlik, yozuvchilik, san’atkorlik kasbi bilan bog‘liq ismlarga guruhladi<sup>11</sup>. M.A.Aliyeva esa, milliy gazlama dizaynerligi terminlarining leksik-semantik guruhlarini ajratdi<sup>12</sup>. O‘rganilgan barcha tadqiqtlarda hunarmandchilikning turli sohalari leksik jihatdan

<sup>6</sup> Шмелев Д.Н. Происхождение и развитие русского языка. – Москва: Флинта, 1972. – 280 с.

<sup>7</sup> Shamsiddinov H. Perifraza xususida ayrim mulohazalar // O‘zbek tili va adabiyoti, 1993. – № 4. – В. 29-35.; Aytboyev D. Sarlavhada perifrazalar // O‘zbek tili va adabiyoti, 2007. – № 4. – В. 65-68.; Normurodov R. Perifrazaning evfemik yo‘l bilan hosil bo‘lishi // O‘zbek tili va adabiyoti, 2010. – № 2. – В.76 -78.

<sup>8</sup> Umirov I. O‘zbek tili perifrazalari: Filol. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 1996. – 23 b.

<sup>9</sup> Ахмадова У. Перифразаларнинг социал хосланиши: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. – Бухоро, 2021. – 150 б.; Кобилова А. Инглиз ва ўзбек лингвомаданиятида тиббий перифразаларнинг хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри дисс. – Бухоро, 2023. – 155 б.

<sup>10</sup> Худаярова М. Ўзбек тилидаги таом номларининг лингвистик таҳлили (Қорақалпогистон худуди материаллари асосида): Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 24 б.; Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси (чорвадорлар нутки мисолида): Филол. фан. д-ри дисс. – Тошкент, 2009. – 139 б.; Норбоева Ш.Х. Хоразм шеваларидаги кийим-кечак номларининг структур-семантик тадқики: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2017. – 136 б.; Абдиев М.Б. Соҳавий лексиканинг систем таҳлили (Самарқанд вилояти касб-хунарлари материаллари асосида): Филол. фан. д-ри дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 55 б.

<sup>11</sup> Kenjayeva S. O‘zbek tili antroponimlarining nominatsion-motivatsion asoslari va tavsifi: Filol. fan. bo‘yicha fals. d-ri. diss. – Qarshi, 2019. – 138 b.

<sup>12</sup> Алиева М.А. Ўзбек миллий газлама дизайнерлиги терминларининг семантик-грамматик тадқики: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – Б. 17.

talqin qilingan. Ammo aynan soha vakillari nutqida qo'llanilgan perifrazalar, ularning lingvomadaniy, sotsial jihatlari tadqiqiga kam ahamiyat qaratilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiytadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "O'zbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolarini" mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o'zbek hunarmandchiligi tili, xususan, hunarmandlar nutqida qo'llanadigan ikkilamchi nominatsiya usullari, ularning sotsiopragmatik, ligvomadaniy va leksikografik muammolarini o'rganishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

perifrazalarning terminologik apparati va tasnifi masalalarini ilmiy asoslash hamda uslubiy vositalar tizimidagi o'rmini belgilash;

hunarmandchilik sohasi lisoniy birliklarining tilshunoslik fani nuqtayi nazaridan tadqiq qilinish darajasini aniqlash hamda uning muammolarini belgilash;

o'zbek hunarmandchiligi leksikasi tizimida perifrazalarning qo'llanish darajasini, ularning olamni idrok etish usuli sifatidagi o'rmini aniqlash;

hunarmandchilik perifrazalarining sotsiopragmatik xususiyatlari kontekstual tahlilini berish;

soha vakillari nutqida vogelikni etnik-madaniy idrok etishda hunarmandchilik bilan bog'liq maqol, ibora, aforizm, qanotli so'zlar, ramzning o'rmini lingvomadaniy tahlil qilish;

perifrazalarning leksikografik tavsifi muammolarini va vazifalarini yoritishdan iborat.

**Tadqiqotning obyektini** o'zbek hunarmandchiligidagi perifrastik birliklar tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti** hunarmandlar nutqida qo'llanadigan tasviriy ifodalarning sotsiopragmatik, lingvomadaniy hamda leksikografik tadqiqidan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda ikkilamchi nominatsiya birliklarining dekodlanishi bilan bog'liq bo'lgan sharhlovchi tahlil usuli; tavsiflash, komponent, semantik, qiyosiy-chog'ishtirma hamda lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalanildi.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

perifrastik birliklar olamni idrok etish usuli sifatida qayta nomlovchi nominatsion lisoniy hodisalar bilan bir paradigmada turishi, dunyo lisoniy manzarasini aks ettirishdagi muhim o'rni, leksikografik tavsifi muammolar, hunarmandchilik perifrastik birliklar tezaurus (ideografik) lug'ati tuzilmasi, struktur-grammatik tarkibi (*ezgu tilak elchilari/ sifat+ot+ot*) tahlili izohlangan;

soha tili birliklari (*kashta, ipak, zar, loy*), hunarmandchilikka oid perifrazalar (*millat toji/do'ppi, madaniyatning moddiy dunyosi/gilam, tarix va san'at timsoli/xon atlas*) millatning madaniy qadriyatlari, o'tmishi, tafakkur tarzini sezilarli va yorqin aks ettirishi hunarmandlar sotsiolekti asosida dalillangan;

hunarmandchilik perifrazalarida ma'lum bir xalqning g'oyaviy-siyosiy (*yashirin elchi/gilam*), iqtisodiy-madaniy (*boylik obyekti/so'g'd ipagi*), etnik tarkibi bilan bog'liq ma'lumotlar aks etishi sotsiopragmatik (oltin iplar jozibasi/zardo'zlik,

matoga jon ato qiluvchi san'atkor/*tikuvchi*, loy ustasi/*kulol*) aspektida, kontekstual asosda aniqlangan;

hunarmandlar diskursida qo'llanadigan madaniyatni tashuvchi o'ziga xos perifrazalar (*bag'ri otash mo'jiza/tandir*), maqol (*yigit ko'rki hunar*), topishmoq (*xonning belbog'i beliga yetmas/bilakuzuk*), ibora (*bo'zchining mokisidek qatnamoq*), aforizm (*Hunar qaynar buloq, tuganmas davlat. Kaykovus*), ramz (*olti qirrali yulduz/hayotning ibtidosi*), qanotli so'zlar (*Dilba yor-u, dastba kor*) mazkur kasb egalari tili hamda madaniyati to'g'risida muhim ma'lumotlar berishi, til-lison-madaniyat, madaniy munosabat, madaniy sema (*anor/oila, serfarzandalik, sevgi-muhabbat*), madaniy kod (*chinnigul/hayot ramzi*) tushunchalarining aloqadorligi asoslangan;

perifrazalarning nomlovchi yondosh birliklarga nisbatan kuchliroq pragmatik xususiyatga egaligi, ularning baholash va ta'sir qilish funksiyalari kerakli natijaga tezda erishish imkonini berishi hunarmandchilikning kashtachilik (*xalqimizning o'lmas qadriyati*), zargarlik (*hashamat va nafosat ramzi*), tikuvchilik (*chevar ustalar*), zardo'zlik (*o'zbek hunarmandchiligining gultoji*), kulolchilik (*qora loy mo'jizakorlari*), yog'och o'ymakorligi (*sirli naqshlar san'ati*) yo'naliishlari misolida isbotlangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

1) uy hunarmandchiligi; 2) buyurtma bilan mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik; 3) bozor uchun mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik turlari perifrazalari sotsiopragmatik tahlil qilingan;

hunarmandchilikka doir perifrastik iboralarni sotsiopragmatik hamda lingvomadaniy tadqiq etish orqali chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalar o'zbek tili leksik sathi, uslubshunoslik masalalari, soha lingvistikasini o'rganuvchi tadqiqotchilar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishi dalillangan;

leksikaga barqarorlashayotgan soha vakillari qo'llaydigan perifrazalarning lug'atini yaratish borasidagi nazariy fikrlar shu soha izlanishlarida ko'rsatma vazifasini bajarishi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** lingvistik tahlil metodologiyasi negizida shakllantirilgani, birlamchi ilmiy-uslubiy manbalarga tayanilgani, ikkilamchi nominatsiya birliklarining dekodlanishi bilan bog'liq bo'lgan sharhlovchi tahlil usuli hamda ishonchli va samarali tavsiflash, tasniflash, komponent tahlil, semantik, qiyosiy-chog'ishtirma, tarixiy-genetik tahlil usullaridan foydalanilgani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:** nazariy ahamiyati shundan iboratki, perifraza va shunga o'xshash stilistik vositalar tahlili perifrastik birliklarni pragmatika va lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan o'rganishda zarur manba hisoblanadi. O'zbek tili uslubshunosligi, semasiologiyasi, lug'at tuzish nazariyasi, adabiy til leksik qatlamining genetik manbalari tasviriy ifodalarni o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda tahlil qilingan materialdan o'zbek tilini o'qitish amaliyotida, xususan, uslubshunoslik va lingvomadaniy jihatlardan foydalanish imkoniyatidadir. Tadqiqot natijalaridan o'zbek tili

leksikologiyasi kursida, jumladan, perifrastik lug‘at muammolariga bag‘ishlangan seminarlarda ham foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbek hunarmandlari tilidagi qayta nomlovchi birliklarni o‘rganish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

perifrastik birliklar olamni idrok etish usuli sifatida qayta nomlovchi nominatsion lisoniy hodisalar bilan bir paradigmada turishi, dunyo lisoniy manzarasini aks ettirishdagi muhim o‘rni, leksokografik tavsifi muammolari, hunarmandchilik perifrastik birliklar tezaurus (ideografik) lug‘ati tuzilmasi, struktur-grammatik tarkibi (ezgu tilak elchilari/sifat+ot+ot) tahlili xususidagi qarashlardan 2022-2024-yillarda bajarilgan IL-402104209 raqamli “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” nomli amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiv nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 27-yanvardagi 04/1-290-son ma’lumotnomasi). Natijada amaliy loyiha milliy tilga oid hunarmandchilik perifrazalari bilan boyitilgan;

soha tili birliklari (kashta, ipak, zar, loy), hunarmandchilikka oid perifrazalar (millat toji/do‘ppi, madaniyatning moddiy dunyosi/gilam, tarix va san’at timsoli/xon atlas) millatning madaniy qadriyatlari, o‘tmishi, tafakkur tarzini sezilarli va yorqin aks ettirishi hunarmandlar sotsiolekti asosida shakllangan qarashlardan 2020-2021-yillarda bajarilgan A-OT-2021-2-raqamli “Tibbiyotga oid atamalar elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihsida foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2025-yil 10-yanvardagi 01-147-son ma’lumotnomasi). Natijada hunarmandchilikka oid birliklar tarkibida tibbiy ma’nolarni ifodalovchi perifrazalarning qo‘llanilishiga oid qarashlar izohli lug‘atlar va soha lingvistikasini boyitishda manba bo‘lgan;

hunarmandchilik perifrazalarida ma’lum bir xalqning g‘oyaviy-siyosiy (yashirin elchi/gilam), iqtisodiy-madaniy (boylik obyekti/so‘g‘d ipagi), etnik tarkibi bilan bog‘liq ma’lumotlar aks etishi sotsiopragmatik (oltin iplar jozibasi/zardo‘zlik, matoga jon ato qiluvchi san’atkor/tikuvchi, loy ustasi/kulol) aspektida, kontekstual asosda aniqlanganligiga oid ilmiy xulosalardan 2024-2025-yillarda Buxoro davlat muzey qo‘riqxonasida foydalanilgan va qo‘riqxonaga qarashli ilmiy bo‘limda muzey xodimlariga maxsus ma’ruza tashkil etilib, keng tushuntirish ishlari olib borilgan (Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasining 2025-yil 14-yanvardagi 04-05/128-son ma’lumotnomasi). Natijada Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi ekskursiya matnlari amaliy va nazariy jihatdan hunarmandchilik lingvistikasi ma’lumotlari bilan boyitilgan;

hunarmandlar diskursida qo‘llanadigan madaniyatni tashuvchi o‘ziga xos perifrazalar (bag‘ri otash mo‘jiza/tandir), maqol (yigit ko‘rki hunar), topishmoq (xonning belbog‘i beliga yetmas/bilakuzuk), ibora (bo‘zchining mokisidek qatnamoq), aforizm (Hunar qaynar buloq, tunganmas davlat. Kaykovus), ramz (olti qirrali yulduz/hayotning ibtidosi), qanotli so‘zlar (“Dilba yor-u, dastba kor”) mazkur kasb egalari tili hamda madaniyati to‘g‘risida muhim ma’lumotlar berishi, til-lison-madaniyat, madaniy munosabat, madaniy sema (anor/oila, serfarzandlik, sevgi-muhabbat), madaniy kod (chinnigul/hayot ramzi) tushunchalarining aloqadorligi

xususidagi nazariy va amaliy xulosalardan 2024-2025-yillarda O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Buxoro” viloyati teleradiokanalining “Assalom, Buxoro”, “Najot bilimda”, “Sakkizinch mo‘jiza” teleeshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2025-yil 8-yanvardagi 01-09-10-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur teleko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning ta’sirchanlik funksiyasi ortgan, ilmiy dalillarga boy bo‘lishi ta’minlangan;

perifrazalarning nomlovchi yondosh birliklarga nisbatan kuchliroq pragmatik xususiyatga egaligi, ularning baholash va ta’sir qilish funksiyalari kerakli natijaga tezda erishish imkonini berishi hunarmandchilikning kashtachilik (xalqimizning o‘lmas qadriyati), zargarlik (hashamat va nafosat ramzi), tikuvchilik (chevar ustalar), zardo‘zlik (o‘zbek hunarmandchiligining gultoji), kulolchilik (qora loy mo‘jizakorlari), yog‘och o‘ymakorligi (sirli naqshlar san’ati) yo‘nalishlari misolidagi xulosalaridan Oliy ta’limning 60530900 – Fizika, 60540100 – Matematika ta’lim yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun yaratilgan “O‘zbek tili” darsligida foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2025-yil 16-iyundagi 01-3837-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek tilining til xususiyatlariga oid ma’lumotlarni tez, oson o‘rganish hamda o‘rgatishda perifrazalar muhim manba vazifasini bajargan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari bo‘yicha 2ta xalqaro va 5ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 32ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 2ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12ta ilmiy maqola (shu jumladan, 10tasi respublika va 2tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, hajmi 223 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Perifraza va unga yondosh uslubiy vositalarning til tizimidagi o‘rni**” deb nomlanadi. Bobning birinchi “**Perifrazalarning terminologik apparati va tasnifi**” bo‘limida “perifraza” terminining mohiyati, yuzaga kelish omillari, jahon va o‘zbek tilshunosligidagi olimlarning bu sohadagi qarashlari o‘rganildi. Perifraza hodisasiga lingvistik yondashuvlar bo‘yicha qilingan ilmiy tadqiqotlar izohlanib, nazariy bilimlar umumlashtirildi.

Perifrazalarning tilshunoslikda o‘rganilishi turli tillarda xilma-xil kechgan, xususan, perifrazalar rus tilshunosligining bir qator olimlari tomonidan tadqiq etilgan va ularning har biri mazkur hodisaga o‘ziga xos nuqtayi nazardan yondashgan. Jumladan, A.A.Potebnya o‘zining “Russkaya grammatika” (“Rus tili grammatikası”) asarida tasviriy ifodalar tilning ma’no boyligi va uning evolyutsiyasida muhim rol o‘ynashi<sup>13</sup>, V.V.Vinogradov “Russkiy yazik” (“Rus tili”)

<sup>13</sup> Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. – Москва: Просвещение, 1985. – С. 287.

kitobida perifrazalarning leksik-semantik variantlari, sintaktik qurilishi va semantik kategoriyalari, ma’no xususiyatlari<sup>14</sup>, L.V.Shcherba perifrazalarning nutq jarayonini obrazli aks ettirishdagi o‘rnini<sup>15</sup>, D.N.Shmelev “Proisxojdeniye i razvitiye russkogo yazika” (“Rus tilining kelib chiqishi va rivojlanishi”) asarida til tarixiy taraqqiyotida perifrazalarning shakllanishi va rivojlanishiga oid o‘z ilmiy qarashlarini berib o‘tganlar<sup>16</sup>.

Ingliz tilshunosligida ham bu borada qator amaliy ishlar olib borilgan, jumladan, Jeffri Nil Lich (Geoffrey Leech) “Principles of Pragmatics” (Pragmatika tamoyillari) asarida perifrazalarning nutqdagi pragmatik funksiyalarini<sup>17</sup>, Ronald Langaker perifrazalarning psixolingvistik xususiyatlarini<sup>18</sup>, Jorj Lakoff (George Lakoff) “Metaphors we live by” (Biz yashayotgan metaforalar) asarida perifrazalarning metafora bilan bog‘liqligi va metaforik perifrazalarning odamlar dunyo haqidagi tasavvurlarini boyitishdagi o‘rnini<sup>19</sup>, Jon Layons (John Lyons) “Semantics” (Semantika) asarida perifrazalar ma’no tizimida qanday o‘rin egallaganligi va ularning turli ma’noli so‘zlarni ifodalashdagi rolini ko‘rsatdilar<sup>20</sup>. Perifrazalarni o‘rganish bugungi kunda ham davom etmoqdaki, bu hozirda mazkur sohaga ko‘plab tilshunoslarning e’tibor qaratayotganligi bilan xarakterlanadi.

O‘zbek tilshunosligida ham ushbu soha bo‘yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Xususan, Sh.Allayorovaning “Perifrazaning tilshunoslikdagi vazifalari va xususiyatlari” nomli maqolasida nutq jarayonida perifrazalarning kim tomonidan qo‘llanishi, ularning maqsadga muvofiq holda shakllantirilishi, perifraza tashiyotgan ma’no kontekstdan anglashilishi; O.Ikrombekovning “Arab va o‘zbek perifrazalarining semantik-sintaktik strukturası” nomli maqolasida<sup>21</sup> o‘zbek va arab tilshunosligidagi perifrastik birliklarning ilmiy-qiyosiy tahlili, muloqot jarayonini obrazli aks ettirishda muhim omil hisoblanishi; M.Mirtojiyevning “O‘zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi”<sup>22</sup> kitobida perifrazalarning semantik qayta bo‘linishi, unda sintaktik qayta bo‘linish kuzatilmasligi xususida so‘z yuritiladi. Demak, perifrazalarning boshqa sintaktik butunliklardan farqi aynan qayta bo‘linish hodisasining kuzatilmasligida namoyon bo‘ladi. I.Umirovning “O‘zbek tili perifrazalari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida perifrazalarning qator guruhlari tasniflanib o‘rganilgan<sup>23</sup>.

Perifrazalar turli xususiyatlariga qarab guruhlanadi. *Ma’noviy jihatdan* meteorologik (oq par – bulut), anatomik (qaddi-qomat taxti – bel), zoologik (sahro kemasi – tuya), botanik (jannat mevasi – anjir), obyekt ma’noli (javohirlar javohiri – olmos), shaxsni tavsiflovchi (she’r xoqoni – Hamid Olimjon) perifraza turlari mavjud. Tasviriy ifodalarni *tuzilish jihatidan* ham oddiy va murakkab kabi turlarga bo‘lish mumkin.

<sup>14</sup> Виноградов В.В. Русский язык. – Москва: Учпедгиз, 1938. – С. 64.

<sup>15</sup> Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. Изд. 3-е стер. – Москва: ЛКИ, 2007. – С. 74.

<sup>16</sup> Шмелев Д.Н. Происхождение и развитие русского языка. – Москва: Флинта, 1972. – 280 с.

<sup>17</sup> Geoffrey L. Principles of Pragmatics. – Computation of Language, 1983. – 78 р.

<sup>18</sup> [https://en.m.wikipedia.org/wiki/Category:Linguists\\_of\\_English](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Category:Linguists_of_English)

<sup>19</sup> [https://en.m.wikipedia.org/wiki/Category:Linguists\\_of\\_English](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Category:Linguists_of_English)

<sup>20</sup> [https://en.m.wikipedia.org/wiki/Category:Linguists\\_of\\_English](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Category:Linguists_of_English)

<sup>21</sup> [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)

<sup>22</sup> Миртожиев М.М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 42.

<sup>23</sup> Умиров И. Ўзбек тили перифразалари: Филол.фен. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 23 б.

Perifrazalar orqali tilga xos bo‘lgan nafaqat leksik-semantik, balki *lingvokulturologik* xususiyatlar ham yuzaga chiqadi. Ular, ko‘pincha, ma’lum madaniyatdagi muayyan tushunchalarga asoslanib, qadriyatlar hamda an’analarga muvofiq tarzda shakllanadi. Bundan tashqari, perifrazalar *psixolingvistik* jihatlarga ham egaki, ular nutqda yaqqol seziladi. Nutqiy muloqot jarayonida perifrazalardan o‘rinli foydalanish inson tafakkurida so‘zlarni qayta ishlash, uzatilayotgan ma’noni tushunish hamda ma’lumotlarni uzatish jarayoniga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Nutqiy jarayonda perifrazalardan foydalanishda ma’lumotlarni qayta ishlash inson tafakkuri bilan bevosita bog‘liq, bu kontekstda yorqin namoyon bo‘ladi. Perifrazalar, asosan, kontekstga bog‘liq, ya’ni ularning mazmuni amaldagi kontekstga qarab o‘zgaradi. Zero, ma’lumotlarni uzatish va qabul qilishda perifrazalarning psixolingvistik xususiyatlarini tadqiq etish muhim sanaladiki, bu bir necha bosqichni qamrab oladi. Jumladan, 1) *ma’lumotlarni qabul qilish*; 2) *perifrazalarning miyadagi tahlil jarayoni*; 3) *qayta ishlash bosqichi*; 4) *ma’lumotlarni anglash, ularning o‘zaro bog‘lanishi hamda umumiy ma’nosini aniqlash*.

Bundan tashqari, perifrazalarning *pragmatik* tomoni ular ma’nosini va ta’sirining foydalanuvchi hamda tinglovchilar o‘rtasidagi o‘zaro muloqot kontekstida yaqqol namoyon bo‘lishida ko‘rinadi. Masalan, “qo‘l mehnati” tasviriy ifodasi orqali faqatgina ishlab chiqarish jarayoni ko‘rsatilibgina qolmay, balki mahsulotga mehr bilan yondashuv mavjudligi emotsiyasi ham aks ettiriladi.

**“Perifrazalarning uslubiy vositalar tizimidagi o‘rni”** deb nomlangan ushbu bobning ikkinchi bo‘limida perifrazani epitet, evfemizm, argo, jargon, ibora kabi hodisalar bilan qiyosi umumlashtirilgan holda berildi. *Epitet va perifraza* juda ko‘p umumiyligi xususiyatlarga ega: bular tasvirlangan obyekt yoki hodisaning alohida sifatini ta’kidlaydigan stilistik vositalar sanalib, ekspressiv va hissiy xarakterga ega bo‘ladi, subyektiv modallikkaga ega hamda metaforik xarakter kasb etadi. Buni quyidagi badiiy parchada ko‘rish mumkin: “*Butun shaharni alg‘oq-dalg‘oq qilib ko‘hlik qiz qidirg‘an, nihoyat, chiroylilikda tanho, aqlilikda yakdo topib, to‘ylar, tomoshalar, orzu va havaslar bilan o‘g‘liga “xotin bu bo‘libdur!”*”, degan iftixon va mag‘ruriyat ila taqdim qilgan suyukli kelini ustiga go‘yo o‘chakishgandek bo‘lib keladigan *Marg‘ilon parisiga nima va qanday muomala qilar edi*”<sup>24</sup>. Bu matndagi beshta iborani ko‘rib chiqamiz: “*ko‘hlik qiz*”, “*suyukli kelin*” birikmalaridagi “*ko‘hlik*” so‘zi “*qiz*” bilan bog‘liq bo‘lsa, “*suyukli*” so‘zi “*kelin*” bilan birikkan. Har ikkala birikmada ham ijobiy hissiy-ekspressivlik xususiyati mavjud bo‘lib, ular so‘zlovchining subyektiv bahosidir. Ammo bu birikmalar nominativ funksiyaga ega emas, shuning uchun ham epitet hisoblanadi. “*Chiroylilikda tanho*”, “*aqlilikda yakdo*”, “*Marg‘ilon paris*” birikmalari esa, baholovchi, ma’lumot beruvchi vazifalardan tashqari nominativ funksiyani ham bajaradi. Shuning uchun bunday turdagilarni perifraza sifatida belgilash lozim.

*Perifraza va evfemizmning umumiyligi* jihatlari quyidagilardan iborat: ikkala hodisa ham ikkinchi darajali nominativ funksiyani bajaratigan va metafora bilan tafsiflangan obyekt yoki hodisani tafsiflovchi stilistik vositadir. Perifraza quyidagi belgilarga ko‘ra evfemizmga qarama-qarshi qo‘yiladi: u tasvirlanayotgan obyektning alohida sifatini ta’kidlaydi. U giperekspresivlik va subyektiv baholash

<sup>24</sup> Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Sharq, 2018. – B. 384.

bilan ajralib turadi. Matnning obrazlilagini ta'minlaydi, ifodalilagini oshiradi. Evfemizm esa, aksincha, “nutqdagi notejislikni tekislash uchun” xizmat qiladi, to‘g‘rirog‘i, muloyimlashtirish funksiyasiga ega. Ularning komponent tarkiblari ham farq qiladi: evfemizm bir so‘zdan ham iborat bo‘lishi mumkin: o‘lmoq – *tugamoq*, *bitmoq*; qarimoq – *keksaymoq* va boshqalar. Perifraza esa, asosan, ikki va undan ortiq tarkibiy qismidan tashkil topadi.

*Perifraza va argo, jargon.* Perifrazalarni unga yondosh bo‘lgan argo va jargon kabi lingvistik hodisalardan ham farqlash lozim. O‘zbek tili leksikasining chegaralangan qatlami doirasida tadqiq qilinuvchi argo va jargonlar perifrazalarga o‘xshashdek ko‘rinadi. Biroq ular chegaralangan leksika tizimida o‘rganilishi bilanoq perifrazalardan farq qiladi<sup>25</sup>. Argolar faqatgina ma’lum bir guruh doirasidagina qo‘llanilib, ostida yashirin maqsad yotishi bilan tilshunoslikda o‘ziga yondosh hodisa sifatida qaralayotgan perifrastik birliklardan farq qiladi. Jargonlar ma’lum bir ijtimoiy guruh manfaati uchun xizmat qiluvchi leksik birlik hisoblanadi. Perifrastik birliklar singari ommaviy nutqni boyitish uchun xizmat qilmaydi. Argo jargondan yashirin til bo‘lganligi hamda professional aloqaga ega emasligi, turli guruhlar tomonidan ishlatilishi bilan farqlanadi.

*Perifraza va ibora.* Ibora ham, perifraza ham badiiy bo‘yoqdorlikka ega turg‘un birlik (*bag‘ri tosh* (ibora) – *mo‘yqalam sohiblari* (perifraza); bir so‘zning kengaytirilgan obrazli shakli ekanligi (*og‘zi qulog‘ida* (ibora) – *otash arava* (perifraza); har ikkalasi ham birdan ortiq komponentdan iborat bo‘lishi (*yerga ursa osmonga sapchiydigan* (ibora) – *g‘azal mulkining sultoni* (perifraza); uslubiy jihatdan ekspressivlik, fikrni yashirish orqali bayon qilish (nomini atamay turib aytish) va shu orqali tinglovchi/o‘quvchi diqqatini jalb etish kabi xususiyatlar ularning o‘xshash jihatlari hisoblanadi. Biroq perifrazalarni frazeologik birlik deb hisoblash ham yoki ularni iboralarning alohida ko‘rinishi sifatida talqin etish ham mohiyatga biryoqlama yondashish oqibatidir. Ibora va perifrazaning shakllanishida tafovut bor, chunki ibora til birligi bo‘lgan frazemaning nutqiy hosilasi bo‘lsa, perifraza (tasviriy ifoda) jamiyat kishilari nutqida yaratilib (ommalashib) tilga kirgan (lisoniy lashgan) birlikdir. Frazeologik birliklar semantik uyg‘unlik bilan ajralib turadi. Perifrazalarning ma’nosi esa, aksincha, barcha semalarning ma’nolari yig‘indisidir.

Ushbu bobning uchinchi bo‘limi **“Perifrazalar olamni idrok etish usuli sifatida”** deb nomlangan. Olamning lisoniy manzarasini anglashda tilning madaniy jihatdan o‘ziga xosligiga e’tibor qaratiladi. Zotan, madaniyatlar xilma-xil, qadriyatlar turlicha. Til madaniyatning ajralmas qismidirki, u elatning milliy tarixi, qadriyatları, urf-odat-u an’analari, dunyoqarashini aks ettiradi. Har bir tilga xos til vositalari mavjud bo‘lgani kabi tasviriy ifodalarning ham tillar orasida o‘ziga xos ko‘rinishlari mavjudligi olamning lisoniy manzarasini anglashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotda hunarmand lisoniy olami bilan bog‘liq ayrim obyektlarning shaxs tafakkurida idrok etilish holatlari kuzatildi. Jumladan, “Loydan yaratilgan mo‘jiza”<sup>26</sup> – bu kulolchilik mahsulotlariga xos perifraza bo‘lib, oddiy loydan mo‘jizakor go‘zallik yaratilganligi hamda shu tuproq zamirida saxovat,

<sup>25</sup> Абузалова М.К., Ахмадова У.Ш. Перифразаларнинг арго, жаргон ва эвфемизлар билан муносабати // “Баркарорлик ва етакчи тадқиқотлар” онлайн илмий журнали. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – Б. 253-258.

<sup>26</sup> <https://www.youtube.com/watch?v=FYngs58aiC4>

farovonlik, halollik, to‘kinlik, rizq-ro‘z, go‘zallik mujassamligini yetkazish uchun bir nechta so‘zlardan foydalanilgan; “Gul yaratuvchi usta”<sup>27</sup> – bu naqqosh uchun qo‘llanilgan perifraza bo‘lib, naqqoshlik san’atining qonun-qoidalari, uslubi, o‘ziga xos ranglarning uyg‘unligi, mujassamotlar bezagi, ustalar tasavvuri mahsulini tasvirlash uchun badiiy tavsifdan foydalanilgan; “Sehrlangan mato”<sup>28</sup> – bu kashta tikilgan matoning perifrazasi bo‘lib, nafaqat bezak vazifasini bajaruvchi, balki turli ko‘zlardan saqllovchi buyum sifatida qaralganligini, xalq orasida uning insjinslardan, ko‘z tegishidan saqlash xususiyati borligiga ishonilganligini ko‘rsatish maqsadida murakkab tavsiflovchi iboradan foydalanilgan.

Bobning so‘nggi bo‘limi “**Zamonaviy perifrastik leksika**” deb nomlanadi. Bugungi kunda nafaqat yurtimizda, balki butun jahonda fan-texnika, ta’lim, sport, tibbiyat, iqtisodiyot hamda shu kabi inson hayotining barcha jabhalarini keng qamrab olayotgan sohalarning shiddat bilan rivoj topib borayotganligi ushbu sohalarni yangidan yangi tushunchalar bilan boyitib bormoqda. Tabiiyki, tilimiz ham o‘zining lingvistik imkoniyatlaridan keng foydalangan holda ushbu yangi tushunchalarning insonlarga yanada tushunarli bo‘lishi va ifoda ko‘lamini keng tarzda yetkazib berish maqsadida tasviriy ifodalar bilan boyimoqda. Jumladan, bugungi kunda kirib bormagan xonadoni qolmagan va barcha soha vakillari hayotining ajralmas qismiga aylanishga ulgurgan “internet” tushunchasini bildiradigan *virtual olam*, *ipsiz to‘r* hamda futbolchi qizlarni ifodalaydigan *yashil maydon malikalari* kabi perifrazalari istiqlol yillarida yaratilgan va bugungi kunga kelib tilimizda keng ommalashishga ulgurgan. Fan va texnika taraqqiyoti bevosita tilshunoslikka ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Unda yangidan yangi yo‘nalishlar shakllanib, mavjudlari tarkibida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Xususan, perifrazalar ham texnika rivojlanishi natijasida yangi ma’noga ega birliklar evaziga yanada kengaydi. Ular *zamonaviy perifrastik leksika* atamasi ostida yuritiladi. Bu zamonaviy tilning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bo‘lib, u yangi tushunchalar, texnologiyalar, ijtimoiy hodisalar va g‘oyalarni ifodalash uchun paydo bo‘lgan perifrazalarni o‘z ichiga oladi. Mazkur leksika doimiy ravishda yangilanib turadi, chunki tilning o‘zi ham doimo rivojlanib, yangi tushunchalarni o‘zlashtirib boradi. Masalan, tibbiyat sohasidagi ayrim tushunchalarni obrazli tarzda ifodalovchi zamonaviy perifrazalarga *qon bosimi termometri* (limon), *keksalik guli* (pigmentli dog‘lar), sportning turli yo‘nalishlaridagi perifrastik birliklariga *taxtdan tushgan dzyudo malikasi* (Uta Abe), *o‘zbekning To‘marisi* (Diyora Keldiyorova), hunarmandchilikka oid perifrazalarga *o‘t ichidan chiqqan qaqnus qushi* (zardo‘zlik), *bag‘ri otash mo‘jiza* (tandir) yoki turli sohalarda *taraqqiyot kushandas* (korrupsiya), *zamonaviy tibbiyotning dushmani* (internet), *tarix ko‘zgusi* (muzeylar), *suvosti dunyosining jonli burchagi* (akvarium), *aqli uzuk* (Oura Ring) kabi shaxsni, o‘rin-joy va narsa-hodisani ifodalovchi funksional-semantik perifrazalarni uchratishimiz mumkin. Tilning tadrijiy taraqqiyotini namoyon etishda, undagi yangi tushunchalar, g‘oyalari, madaniy qatlama ga xos o‘zgarishlarni aks ettirish uchun zamonaviy perifrazalardan unumli foydalaniladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Hunarmandlar nutqi sotsiopragmatikasi**” deb nomlanib, to‘rt bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘lim “**Perifrazalarning ijtimoiy-**

<sup>27</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Naqqosh>

<sup>28</sup> Gyul E. O‘zbekiston kashtachiligi va gilamlari xorijiy to‘plamlarda. – Toshkent: Silk road media, 2020. – B. 28.

**kasbiy tasnifga ko‘ra turlari xususida”** deb nomlanadi. Mazkur faslda perifrazalarning ijtimoiy-kasbiy tasnifiga ko‘ra turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari hamda hunarmandlar kasbi bilan bog‘liq leksik tizim, tasvirlashga xoslangan perifrazalar bo‘yicha ayrim ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Hunarmandlar nutqi birliklari tavsiyini keltirishdan oldin esa, turli sohaga oid tasviriy ifodalarga qisqacha izoh berildi. Zero, ijtimoiy-kasbiy lisoniy birliklar shaxs lisoniy olamida o‘zaro paradigmatic munosabatda turadi hamda ular bir-birini taqozo qiladi. Perifrazalarning ijtimoiy-kasbiy sinfiy turlari ular ishtirokidagi soha va kasblarga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Bu tasnif perifrazalarning turli sohalarda mavjud ekanligi hamda ushbu perifrazalar yuzaga kelishida kasbga oid terminlar bilan o‘zaro bog‘liqlik hosil qilishidan dalolat beradi. Aytish joizki, har bir soha vakillarining, hunar egalarining, o‘ziga xos sotsial qatlamlarning nutqini “tanitib turuvchi” terminlari bilan birga perifrazalari ham bo‘ladi. Jumladan, kasbiy atamalar asosida shakllangan ilmiy perifrazalar: *sarhadsiz chegaralarimiz burgutlari* (harbiylar), *ta’lim fidoyilari* (o‘qituvchilar); texnika va texnologiya sohasidagi perifrazalar: *temir ot*, (poyezd), *havo kemasi* (samolyot), *onlayn tarmoq*, (internet), *zangori ekran* (televizor); tibbiyot sohasida foydalilaniladigan tibbiy perifrazalar: *ezgulik farishtalari* (shifokorlar), *kasallik signali* (papiloma); huquq sohasida qo‘llanadigan perifrazalar: *adolat kitobi* (qonunlar majmuyi), *qonun himoyachisi* (advokat); sport sohasiga oid perifrazalar: *futbol qiroli* (Pele), *muz malikalari* (figurali uchuvchi qizlar); jurnalistikaga oid perifrazalar: *to‘rtinchchi hokimiyyat* (matbuot), *xalq va davlat o‘rtasidagi ko‘prik* (matbuot). Xulosa shuki, ijtimoiy-kasbiy jihatdan tasniflangan perifrazalar tanlangan soha yoki kasbning o‘ziga xos terminlaridan kelib chiqqan holda yuzaga keladi. Ulardagi aniqlik va auditoriya uchun tushunarilik xususiyati asosiy omil sifatida baholanadi.

Bobning ikkinchi bo‘limi **“Hunarmandlar nutqi lingvistik tahlil obyekti sifatida”** deb nomlanadi. Keyingi yillarda tilshunoslik, madaniyatshunoslik, turizm, hunarmandchilik, lingvokulturologiyada inson va uni bir-biriga bog‘lab turuvchi omillarni birqalikda o‘rganish, ya’ni xalqning tili, mentaliteti, tashqi ko‘rinishi, ichki dunyosi, qadriyat va urf-odatlari kabi tomonlarini o‘rganish, tadqiq qilish an'anaga aylanib bormoqda<sup>29</sup>. Hunarmandlar nutqida xalqning milliy-mentalitetini, uning tarixi, qarashlari va urf-odatlarini o‘zida namoyon etuvchi lingvistik birliklar faol qo‘llanadi.

Turli viloyatlarda o‘z faoliyatlarini olib borayotgan hunarmand ustalarning nutqiy muloqotini kuzatish natijasida soha vakillari nutqining boshqa soha mutaxassislari nutqidan farqlanuvchi asosiy belgisi ularda, asosan, so‘zlashuv uslubiga xos xususiyatlarning bo‘rtib turishi aniqlandi. Quyida Marg‘ilonda

<sup>29</sup> Erejepova A.A. O‘zbek va qoraqalpoq xalq zargarlik leksikasi // “Barqaror taraqqiyot va rivojlanish tamoyillari” onlayn ilmiy jurnal. – Toshkent, 2023. – № 8. 130-132 b.; Ravshanova M.E., Sarimsokov H.A. Hunarmandchilikka oid leksik birliklarning taraqqiyoti tarixiy davrlari // International scientific-practical conference on the topic of “Foreign language in professional communication”. – Toshkent, 2024. – № 4 (25). 162-165-b.; Xo‘jayeva M.F., Uralova O.B. Ingliz va o‘zbek tillarida hunarmandchilik terminlarining semantik va lingvostatistik tavsiyi (xarakteristikasi) // Eurasian journal of academic research Innovative Academy Research Support Center. Volume 2 Issue 3, March. 2022. ISSN: 2181-2020. – 496-499-b.; Mamatova M.Dj. Kasb-hunar leksikasi // Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – № 6 (100). – 198-200 b.; Musayeva N.E., Ibragimov Y.M. Shevalar leksikasining taraqqiy etishida kasb-hunar terminlarining o‘rni // “Globallashuv davrida tilshunoslik va adabiyotshunoslik taraqqiyoti hamda ta’lim texnologiyalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2023. – 282-284-b.

istiqomat qiluvchi mashhur do‘ppichilik yo‘nalishining uchinchi avlod vakili Nasiba Mamajonova nutqidan olingan parcha tahlili ko‘riladi: ...*Do ‘ppini* 54, 56, 57 *o‘lchamlari bo‘ladi. O‘lchamini o‘lchamga moslab bichamiz. Ancha ishi bor. Hammasi ish bitgandan keyin manaqa holatga keladi. Ovvolo, har hududdi o‘zini do‘ppisi o‘ziga aziz... Bizda do‘ppiga lak berilib, qatirilib, uzoqqa yetadigan qilinadi, taxtakashda preslanadi. Xudoga shukr, shuni orqasidan holol pul topib, rohatini ko‘ryappan. Makkam-makkam, yaxshi-yaxshi ushasalaring o‘zlaringga oson*” (“Moziyga sayohat” dasturidan). Keltirilgan parchadagi *ovvolo, qatirilib, holol, manaqa, makkam-makkam, ushasa, ko‘ryappan* birliklari Marg‘ilon shevasining o‘ziga xos fonetik, leksik va morfologik xususiyatlarini ko‘rsatib beradi. Bundan tashqari, sheva vakillari nutqini dialektal matnlar sifatida yozib, transkripsiya qilib, undagi sheva birliklarni aniqlash jarayoni orqali hunarmandchilikka oid aksariyat xalqona terminlarni jamlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Hunarmandlar nutqini tahlil etar ekanmiz, uning yana bir o‘ziga xos jihatni hunarmandlarning boshqa yo‘nalishlar, jumladan, psixologiya, tibbiyot kabi sohalar ilmidan ham xabardor ekanliklari hamda buning shunchaki bir qiziqish emas, balki kasb taqozosi ekanligi oydinlashdi.

Bobning uchinchi bo‘limi “**Hunarmandchilik perifrazalarining sotsiopragmatik xususiyatlari**” deb nomланади. Mazkur paragraf 1) uy hunarmandchiligi; 2) buyurtma bilan mahsulot tayyorlaydigan va 3) bozor uchun mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik asosida yoritildi. Hunarmandchilikning ildizlari uzoq moziyga borib taqaladi. Payg‘ambarlar tarixiga nazar solinsa, har bir payg‘ambarning o‘z hunari va kasbi bo‘lganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Ular orasida hunarmandchilikning tikuvchilik, temirchilik, duradgorlik, soatsozlik kasblari bilan shug‘ullanganliklari kuzatiladi. Jumladan, “Ibn Abbos (roziyallohu anhu)dan oldingi payg‘ambarlarning hunari haqida so‘raldi. U kishi: ... Idris (alayhissalom) podshoh, yagona hakim bo‘lsalar ham tikuvchilik qilganlar va u kishi birinchi bo‘lib kiyim tikib kiyganlardandir... Nuh (alayhissalom) duradgor edilar va u kishi birinchi bo‘lib kema yasagan. ... Yusuf (alayhissalom) soatsoz bo‘lganlar, u kishining zindonda yog‘ochdan soat yasagani naql qilingan. ... Ilyos (alayhissalom) tikuvchi va Dovud (alayhissalom)sovutchi (temirchi) bo‘lgan...”, deganlar<sup>30</sup>. Ko‘rinadiki, hunarmandchilik an’analarining keyingi davrlarda rivojlanishi va taraqqiyoti payg‘ambarlar faoliyatiga borib taqaladi.

**Uy hunarmandchiligining** yirik tarmoqlaridan biri *to‘qimachilik* sanaladi. Hunarmandchilikning ushbu turiga oid qarashlar bilan birgalikda perifraistik birliklar ham shakllanib, xalqimiz leksik zaxirasidan joy olganligini kuzatish mumkin. Jumladan, *madaniyatning moddiy dunyosi*<sup>31</sup>, *yashirin elchi*<sup>32</sup> – gilam, *boylik obyekti*<sup>33</sup> – so‘g‘d ipagi. Uy hunarmandchiligining *kashtachilik* turida ham o‘zbek madaniyati va leksikasiga xos bo‘lgan so‘zlar yashaydi. Jumladan: *milliy madaniyatning iftixori*<sup>34</sup> – kashtachilik, *sehrlangan mato*<sup>35</sup> – kashta tikilgan mato.

**Buyurtma bilan mahsulot tayyorlaydigan** hunarmandchilikning muhim

<sup>30</sup> <https://hidoyat.uz/37235>

<sup>31</sup> Gyul E. O‘zbekiston kashtachiligi va gilamlari xorijiy to‘plamlarda. – Toshkent: Silk road media, 2020. – B. 37.

<sup>32</sup> Gyul E. O‘zbekiston kashtachiligi va gilamlari xorijiy to‘plamlarda. – Toshkent: Silk road media, 2020. – B. 38.

<sup>33</sup> Gyul E. O‘zbekiston kashtachiligi va gilamlari xorijiy to‘plamlarda. – Toshkent: Silk road media, 2020. – B. 38.

<sup>34</sup> Gyul E. O‘zbekiston kashtachiligi va gilamlari xorijiy to‘plamlarda. – Toshkent: Silk road media, 2020. – B. 36.

<sup>35</sup> Gyul E. O‘zbekiston kashtachiligi va gilamlari xorijiy to‘plamlarda. – Toshkent: Silk road media, 2020. – B. 28.

turidan biri *tikuvchilik* sohasi hisoblanadi. “Bezak berish jarayonlarida soha vakillarining nutqida yoki shu sohaga oid bo‘lgan predmet va vositalariga nisbatan qo‘llangan perifrazalar ham anchagina”<sup>36</sup>. Jumladan, *Matoga jon ato qiluvchi san’atkor* – tikuvchi, *igna uchida yaratilgan mukammallik* – kichik, ammo muhim detallar ustida ishlashdagi aniqlik, *iplarning uyumsiz raqsi* – noto‘g‘ri yoki chalkash tikuv jarayonini ifodalash. *Kandakorlik* mahsulotlariga nisbatan *xonodon umumiylinteryeri bezagi*, *bulbul ko‘zi*, *chashmibulbul* kabi perifrazalar qo‘llangan bo‘lsa, xalq amaliy san’atining *miniatyura* sohasida *dunyoni ko‘rish san’ati*, *insonning jonli soyasi*, *jonli kichik o‘lchamlar mo‘jizasi*, *shohlar bayoni san’ati* kabilar, *yog‘och o‘ymakorligi* sohasida *sirli naqshlar san’ati* perifrazalari qo‘llangan.

**Bozor uchun mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilikning zargarlik sohasiga oid perifrazalar:** *bilaklar naqshi* – bilakuzuk; *bosh bezagi*, *bezaklar toji*, *peshona shingili* – tillaqosh; *qulqlar quyoshi*, *qulqlar qandili*, *qulqlar ohi* – halqa (sirg‘a); *barmoqlar mohi* – uzuk; **kulolchilik sohasiga oid perifrazalar:** *hunarmandchilikning ibtidosi* – kulolchilik; *loydan yaratilgan mo‘jiza* – kulolchilikda yasaladigan turli buyumlar; **do‘ppido‘zlik sohasiga oid perifrazalar:** *machit gumbazi* – do‘ppido‘zlikda qo‘llanadigan perifraza bo‘lib, do‘ppining uchi yuqoriga ko‘tarilgan shakliga nisbatan qo‘llanadi; *tillo bezaklar, xazina ipaklar* – do‘ppido‘zlikda zar iplar bilan tikilgan naqshlarga shunday ta’rif beriladi. *Millat toji* – do‘ppi<sup>37</sup>). Ushbu perifrazalar hunarmandchilikning nozik va badiiy jihatlarini ta’riflash uchun ishlatilgan.

Bobning to‘rtinchi bo‘limi **“Hunarmandlar nutqiga xos uslubiy vositalar pragmatikasi”** deb nomlanadi. Usta hunarmandlar nutqida uchraydigan uslubiy vositalarning eng faollaridan biri **perifrazalar** sanaladi. Ushbu perifraistik birliklar hunarmandchilikning turli sohalariga oid bo‘lib, sohaga oid yo‘nalishlar, ularning mehnat qurollari, ish jarayonlari va shu mehnat bilan shug‘ullanuvchi shaxslar hamda ularning tarixiy hududlarini tasvirlaydi. Tushunchalarning badiiyatini oshirib, obrazli tarzda ifodalab xotirada estetik funksiya asosida muhrlanib qolishga xizmat ko‘rsatadi. Jumladan, *turizmning bir bo‘lagi* – hunarmandchilik sohasi<sup>38</sup>, *ipakchilar, hunarmandlar yurti* – Marg‘ilon shahri<sup>39</sup>, *noyob tovar* – Samarcand qog‘oz<sup>40</sup>, *ip ustalari* – kashtachilar<sup>41</sup>, *naqsh ustasi*, *gul yaratuvchi usta* – naqqosh<sup>42</sup>, *shoxli beka, mohitilla, tilla oy* – bibishox (peshona, chakka bezagi)<sup>43</sup>, *O‘rta Osiyoning boy bezakli ipak matosi, noyob ipak mato* – zandaniychi, zandanechi<sup>44</sup>.

**Frazeologik birliklarning** bajaradigan asosiy funksiyalaridan biri nutqning jozibadorligini, uning ta’sirchan, bo‘yoqdor va jonli tarzda amalga oshirilishini ta’minalashdan iborat bo‘lsa, yana bir muhim vazifasi xalqning madaniy til boyligini aks ettirishdan iboratdir. Jumladan, *qo‘l mehnati, bo‘zchining mokisiday, sitqi dildan, mehr bilan yondashmoq, zamon bilan hamnafas, avloddan-avlodga o‘tmoq*

<sup>36</sup> Ahmadova U.Sh. Hunarmandlar nutqining lingvomadaniy tahlili // So‘z san’ati, 2024. – 7-jild, – №1. – B. 194-195.

<sup>37</sup> Yangi O‘zbekiston. 2021-yil, 4-noyabr. 220-son. – B. 16.

<sup>38</sup> “Davr”, N.Xolmo‘minova nutqidan.

<sup>39</sup> <https://yuz.uz/uz/news/hunarmandchilik-azaliy-qadriyat>

<sup>40</sup> <https://meros.uz/object/samarqand-qogozi>

<sup>41</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kashtado%CA%BBzlik>

<sup>42</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Naqqosh>

<sup>43</sup> Гюль Э. Бадиий энциклопедия. Ўзбекистон анъанавий санъати атамалари. – Toshkent: Zamon-press info nashriyot uyi, 2023. – B. 29.

<sup>44</sup> <https://handicraftman.uz/o-rta-osiyoning-boy-bezakli-ipak-matosi-zandaneychi/>

kabi nutqiy shtamplar (qoliplashgan nutqiy birlik) hunarmandlar nutqida tez-tez kuzatiladi.

Xalq amaliy san'ati ildizlarida ham badiiylik elementlari yotadi. Ushbu soha vakillarining nutqiy muloqotida **sifatlashlarning** rang-barang namunalarini uchratish mumkin. Masalan, *qaviq chok, qovurg‘ali yuza, maxsus tasma, paxtakor nusxa, lolagul do‘ppi, qalampir do‘ppi, tarixiy qolip, milliy liboslar, keramika buyumlar* va shu kabilar.

Kashtachilik, yog‘och o‘ymakorligi, zargarlik kabi hunarmandchilik yo‘nalishlariga oid muloqot shakllarida quyidagi **o‘xshatishlarga** murojaat miqdoran ko‘pligi sezildi: *o‘simliksimon nashqlar, yomg‘ir tomchisidek, oltin xazinasidek, farzandga mehr qo‘ygan kabi, qalampir kabi achchiq* va boshqalar.

Bundan tashqari, xalq folklorining **maqol** janri namunalarida ham hunarmadchilik, uning turlari, mehnat qurollari, ish jarayoni bilan bog‘liq birliklarning ishtirokini kuzatish mumkin: “*Uchqundan qo‘rqqan temirchi bo‘lmas. Temirchi taqaga yolchimas, bo‘zchi – belboqqa. Zar qadrini zargar bilar. Yer yuzida bitta ayol qolsa ham zargarga ish topiladi*”<sup>45</sup>.

Xalqning turmush tarzi va uning qadimiy e’tiqodlari ifodasi sifatida yuzaga kelgan yana bir folklor janri **topishmoqdir**. Topishmoqlar tarkibida ham hunarmandchilik sohasining turli yo‘nalishlaridagi xomashyo, mahsulot va predmet nomlarining perifrazalanganligi kuzatiladi (1.1-jadvalga qarang):

### 1.1-jadval

#### Topishmoq janriga xos perifrazalar

Nº	Perifrazalanayotgan so‘z	Perifraza	Topishmoq
1	qaychi	ikki podsho	<i>Ikki podsho qon chiqarmay urishadi</i> <sup>46</sup> .
2	angishvona	bozordagi mo‘ndi	<i>Bozordagi mo‘ndi,</i> <i>Kelib qo‘limga qo‘ndi</i> <sup>47</sup> .
3	tikish mashinasi	tilla to‘qim	<i>O‘t yemaydi bedanam,</i> <i>Suv ichmaydi bedanam.</i> <i>Tilla to‘qim ustida,</i> <i>Yo‘rg‘alaydi bedanam</i> <sup>48</sup> .
4	qulf	uyning posboni	<i>Posbonidir u uyning,</i> <i>Ko‘zi, tili yo‘q uning</i> <sup>49</sup> .
5	qora atlas	qora botir	<i>Qora botir qaltiroq,</i> <i>Sag‘irlari yaltiroq</i> <sup>50</sup> .
6	bilakuzuk	xonning belbog‘i	<i>Xonning belbog‘i beliga yetmas</i> <sup>51</sup> .

Xullas, hunarmandchilikda soha vakillari nutqida uslubiy vositalardan perifraza, ibora, sifatlash, o‘xshatishlar; xalq folklorining maqol va topishmoq janri namunalarida ham hunarmadchilik, uning turlari, mehnat qurollari, ish jarayoni bilan bog‘liq birliklarning ishtirokini kuzatish mumkin.

<sup>45</sup> Suvonqulova H. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2014. – C. 52.

<sup>46</sup> Ўзбек топишмоқлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б. 175.

<sup>47</sup> Ўзбек топишмоқлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б. 177.

<sup>48</sup> Ўзбек топишмоқлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б. 180.

<sup>49</sup> <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-topishmoqlari/yangi-topishmoqlar>

<sup>50</sup> <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-topishmoqlari/kiyim-kechak-bezak-va-tikuvchilik-asboblari>

<sup>51</sup> Ko‘rsatilgan havola.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Hunarmandlar nutqidagi lingvomadaniy birliklarning verballahishi**” deb nomlanib, uchta bo‘limdan iborat. Bobning birinchi bo‘limi “**Til birliklarini o‘rganishning lingvistik-madaniy jihat**” deb nomlanadi. Tilshunoslikda til birliklarning madaniyatga oid xususiyatlarini tadqiq qilish XIX asr oxiri XX asr boshlarida lingvomadaniyatshunoslik fani sifatida shakllana boshladi.

Mazkur sohaning obyekti til va madaniyat, predmeti esa, o‘zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi<sup>52</sup>. Bunday til birliklari *lingvomadaniy birliklar* termini ostida birlashadi. *Perifraza, ramz, mifologema, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, pretsedent birliklar, nutqiy etikelar* eng asosiy lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Mazkur birliklar tadqiqot mavzusi doirasida ketma-ketlikda misollarda izohlangan. Jumladan, hunarmandchilikka oid perifrazalarda *semiotik kodlarga* juda ko‘p murojaat qilinadi. Kashtachilikda ayrim meva nomlari – *anorgul, bodomcha, olmazor* madaniy kod sifatida; hayvon nomlari – *tuyako’z* (holvapazlik), *ilonizi* (o‘ymakorlik, kashtachilik, koshinkorlik, kulollik), *baliqko’z* (gilamchilik, pichoqchilik), *chashmi bulbul* (kashtachilik, yo‘rmado‘zlik, patdo‘zlik sohalarida); predmet nomlari – *samovargul* (kashtachilik), *tariqqul* (kashtachilik, gilamchilik, kulollik), *bovirsoqgul* (bo‘g‘irsoqgul), *kosagul* (kashtachilik, gilamchilik), karsangul, *tog ‘oragul* (gilamchilik, kashtachilik), tolbargi (kashtachilik), *pichoquchi* (gilamchilik)da kabi.

*Metafora* o‘zida asosiy madaniy qadriyatlarni aks ettiradi, chunki metafora madaniy-milliy dunyoqarashga asoslangan. Hunarmandchilikka oid kashta buyumlarida afsonaviy *baxt qushi, xumo, tovus, kaklik, kaptar, bulbul tasviri, hayvonlar, ularning ko‘zi, panjas, shoxi, harakatiga* o‘xhash naqshlar berilgan. Masalan, o‘rmalab ketayotgan ilon izi shaklidagi hoshiya naqsh – *ilonizi* yoki *morpech* (*moripechon, mor forscha – ilon, pech – o‘ramoq*), ko‘zga o‘xhash naqsh – *bulbulko’zi, chashmiqush, mushukko’zi* deb metaforizatsiyalangan.

Tilimizda shunday so‘z, tushuncha, urf-odatlar borki, bir tilning o‘zida yoki boshqa tilga tarjima qilishda *lakunalikni* yuzaga keltiradi. Masalan, *Beshik – chaqaloqni belab va tebratib uxlatish uchun mo‘ljallangan yo‘rg‘a oyoqli maxsus moslama*. Asosan, *tut, tol va boshqa yog‘ochdan yasaladi. Uzunligi 1-1,05 m, balandligi 50 sm dan 60 sm gacha*<sup>53</sup>. *Sumak – beshikka belangan chaqaloqning siydigini tuvakka yo‘naltiruvchi naysimon asbob. Qiz sumak, o‘g‘il sumak. Muborakning otasi qishda duradgorlik qilar eshik, beshik, sumak, sandal, zarang tovoq yasardi*<sup>54</sup>.

Bobning ikkinchi bo‘limi “**Hunarmandchilik leksikasi milliy til zaxirasini boyituvchi manba sifatida**” deb nomlanadi. Leksik birliklar tilda turli semantik munosabatlар asosida har xil paradigmalar hosil qilgan holda mavjud bo‘ladi. Hunarmandchilikka oid birliklarning ma’no guruhlari markazidagi leksemalar o‘zaro qanday munosabatlarda turishini ko‘rib o‘tishimiz diqqatga sazovor hisoblanadi. Hunarmandchilikka oid leksik birliklarning tur-jins (giper-giponimik)

<sup>52</sup> Сабитова З.К. Лингвокультурология: учебник. – Москва: Флинта: Наука, 2013. – С. 9.

<sup>53</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Beshik>

<sup>54</sup> <https://izoh.uz/uz/word/sumak>

va butun-bo‘lak (partonimik) munosabatlarini tahlilga tortamiz:

1. Tur-jins (giper-giponimik) munosabati. Muayyan turlarga nisbatan umumiy ma’noni ifodalovchi va semantik maydonning yadrosi (markazi)da keluvchi bosh so‘zga, *dominantaga* nisbatan *giperonim* atamasi ishlataladi. Bu so‘z jinsni bildiradi. Masalan, kulolchilikda ishlataladigan narsa-qurol nomlari umuman jinsni bildirsa, ishlataladigan har bir narsa (kosa, piyola, lagan, ko‘za) uning turini bildiradi<sup>55</sup>.

2. Butun-bo‘lak (partonimiya) munosabati. Kulolchilik sohasida *choynak* butun nomi sifatida *qopqoq, tumshuq, sop* kabi bo‘lak nomlarini bildiruvchi birliklar bilan partonimik munosabatga kirishadi. Yoki, *charx* butun nom sifatida *g‘ildirak, kichik g‘ildirak, katta g‘ildirak, o‘q, yog‘och o‘q* kabi bo‘lak nomlarini bildiruvchi birliklar bilan partonimik munosabatga kirishadi. Partonimiyaning giper-giponimiyadan farqi shundaki, giponimiyada maydonning bir uzvi (a’zosi) boshqalarga nisbatan qarama-qarshi qo‘yilib, ular o‘rtasidagi ma’no-munosabatlar aniqlansa, partonimiyada alohida olingan uzv (a’zo)ning uni tashkil qilayotgan ichki a’zolari bilan munosabati masalasi o‘rtaga tashlanadi. Tadqiqotda mazkur leksik birliklarning tasviriy ifodalarini izohlangan.

Hunarmandchilikka oid leksik birliklar struktural jihatdan sodda, qo‘shma va murakkab ko‘rinishga ega bo‘ladi. Masalan, *a) sodda so‘zlar: kosa, xum, kulol, kosib, gil, chinni, koshin, bargak, iroqi; b) qo‘shma so‘zlar: anorgul, bodomgul, chumchuqqanot, gilosbarg, qo‘shbodom; d) murakkab: kvadratchali oq naqsh, to‘g‘ri chiziqli tasvir, besh lola; gul chiqarib tikish kabi.*

Hunarmandlar leksikasi tarkibi qatlamlanish nuqtayi nazardan tahlil qilinganida boshqa til birliklarining ham keng qo‘llanganligi kuzatildi. Masalan, kulolchilik sohasida *fors-tojikcha*: bandi rumi, bargi gajak, davra, davrayi xurshid, dandana, daraxti xurmo, doira, du gajagi marg‘ula, du egri xat, dumি baliq, zanjirayi taroq, zarpoya; *arabcha*: anqo, bayt, kabira, kosib, musavvada, marg‘ula, munabbat, muraqqa, obida, sharifa, hal, naqsh, naqshi chin, naqqosh, naqqoshi chin, sabbog‘ (bo‘yoqchi).

Hunarmandlar orasida ham ota-bobolari kasbiga sadoqat ramzi sifatida farzandlariga hunarmandchilikka oid ismlardan foydalanishgan. Fikrimizcha, bunday ismlarni *hunarmadchilikka oid antroponimlar* deb atash va ularni quyidagicha tasniflash mumkin: 1) tikuvchilik, ipakchilik, zargarlik bilan bog‘liq ismlar: Zargar, Ipak, Mohira, Marjon, Marvarid, Kumush, Tillo, Oltin, Feruza, Durbek kabi; 2) ustachilik, duradgorlik bilan bog‘liq ismlar: Najor, Sarroj, Saffor, Chilangar, Temir, Po‘lat kabi.

*Hunarmandchilik bilan bog‘liq toponimlar* quyidagicha tasniflandi: 1) -chi shaxs oti yasovchi qo‘shimcha bilan shakllangan toponimlar: Temirchi, Pichoqchi, To‘qimachi, Po‘lotchi; 2) -soz shaxs oti yasovchi qo‘shimcha bilan shakllangan toponimlar: Sandiqsoz, Pichoqsoz, Darvozasoz; 3) -bof shaxs oti yasovchi qo‘shimcha bilan shakllangan toponimlar: Gilembof, Bofandalar, Baxmalbof; 4) -do‘z shaxs oti yasovchi qo‘shimcha bilan shakllangan toponimlar: Po‘stindo‘z, Qutido‘z, Zardo‘z; 5) narsa-buyum nomi bilan shakllangan toponimlar: Xumdonak, Ketmondo‘g‘di, Sandiqtepa, Charmgaron; 6) hunar nomlari bilan shakllangan toponimlar: Mirishkor, Zarangari, Zargaron, Hunarmandlar, Naqqosh, Ustalar,

<sup>55</sup> Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. – Тошкент: Фан, 1956. – Б. 16.

Zargartepaga kabi. Ma'lum bo'ladiki, til madaniyatda mavjud bo'lgan narsani shunchaki nomlamaydi, balki madaniyatni shakllantiradi.

Bobning uchinchi bo'limi “**Voqelikni etnik-madaniy idrok etishda hunarmandchilik bilan bog'liq birliklarning o'rni**” deb nomlanadi. O'zbek tilida hunarmandchilik bilan bog'liq tushunchalarini ifoda etuvchi *maqollarga* ko'plab misollar keltirish mumkin. Azaldan o'z muloqotida maqollarga murojaat qilish hunarmandlarimizning odatiga aylangan. Tadqiqotimiz predmeti sanalgan perifrazalar ham aynan maqol va frazeologik birliklarda ta'sirchanlikni oshirish uchun xizmat qiladi. Hunarmandlar faoliyati, ish qurorollari nomini anglatuvchi birliklar ishtirok etgan *frazeologik birliklar*: Bo'zchining mokisidek qatnamoq (tez harakat). Qudasi ham uning ishxonasiga *bo'zchining mokisidek qatnaydigan bo'lib qoldi*. (A.Qahhor); *Bo'zchi belboqqa yolchimas*. (Maqol); Ham poshnaga, ham nahalga urmoq (ikki xil munosabatda bo'lish). Sobir, ikki xil gapirmang, etikdo'zlardek *ham poshnaga, ham nahalga urmang*. (A.Qahhor); *Tikuvchi to'nni tor bichmas* (tikuvchining qo'li gul).

*Aforizmlar* (yun. aphorismos – hikmatli so'z) ixcham shaklli, chuqur mazmunli, muallifi aniq gap. Ko'plab allomalar tomonidan yozilgan asarlarda hunar o'rganish eng oliv xazina sifatida talqin qilingan. *Hunar qaynar buloq, tuganmas davlat*, agar hunarmand molidan mahrum bo'lsa, qayg'usi yo'qdir. Hunarmand qayerga borsa, qadrlanadi va uyning to'ridan joy oladi. Hunarsiz odam esa, hamisha mashaqqat chekadi, tilanchilik qiladi. (Kaykovus); Hunarmand-u kosiblar ko'pdir, biroq mohir-u qobiliyatililar ozdir (ya'ni, usta ko'p-u ustasi ozdir). (Zamaxshariy); Kishiga faqat hunar iqbol eshigin ochar. (Bedil); Hunaringdan bir kun yetarsan baxtga, Hunarsiz kim yetar toj ila taxtga. (Nizomiy Ganjaviy)

*Qanotli so'zlar* – adabiy manbalardan nutqimizga kirgan qisqa iqtiboslar, majoziy iboralar, tarixiy shaxslarning so'zlari. Bizningcha, Buxoro hunarmandlari nutqida juda ko'p qo'llaniladigan “Dilba yor-u, dastba kor” jumlesi yoki Buxoro shevasida keng qo'llanadigan “ilonning og'zidan chiqqanday tikmoq” kabi nutqiy hosilalar qanotli so'zlar sirasiga kiradi.

Inson moddiy muhitdan tashqari, ramziy olamda ham yashaydi. Inson o'z tarixining ilk davrlarida ma'nolar dunyosida yashagan, dunyoni ramzlar orqali qabul qilgan, tabiat bilan ramzlar orqali munosabatda bo'lgan. Shunga ko'ra, “inson tilini to'la ma'noda ramzlar tili deyish mumkin”. Hunarmandlar faoliyatida qo'llanadigan ramziy belgilar quyidagicha perifrazalandi (1.2-jadvalga qarang):

## 1.2-jadval

### Hunarmandlar faoliyatida qo'llanadigan ramziy belgilarning perifrastik ifodalari

Nº	Ramzlar	Perifrazalar
1	to'g'ri chiziq	ravon hayot
2	to'lqin chiziq	hayot zorbali
3	olti qirrali yulduz	hayotning ibtidosi
4	romb	mo'tabar ona
5	aylana	ko'hna olam, hayot quyoshi
6	besh qirrali yulduz	besh kunlik dunyo, hayot keksaligi, islomning besh ustuni
7	charxpalak	omad kaliti, yutuqlar zinasi

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi “**O‘zbek tili perifrazalarining leksikografik talqini**” deb nomlanib, uch bo‘limdan tashkil topgan. Bobning birinchi bo‘limi “**Perifrazalarning leksikografik tavsifi masalalari: muammo va vazifalar**” deb nomlanadi. Har qanday yo‘nalishda izlanish olib boradigan lug‘atshunoslar faoliyatlarida juda ko‘plab manbalar, to‘plamlar, matn parchalari, izohlarga tayanishadi. Izlanishlar natijasi sifatida aytish mumkinki, hozirgacha perifrazalar maxsus leksikografik tavsif obyekti bo‘lmagan. Ularning yagona manbasi badiiy, publitsistik matnlar, og‘zaki nutq va ma’no ko‘chimlaridan iborat. Bu jarayon, tabiiyki, perifrazalar lug‘atini tuzish muammosini ancha murakkablashtiradi. Perifrastik birikmaning o‘ziga xosligi uning semasida namoyon bo‘ladiki, bunda so‘z, so‘z birikmasi, frazeologik birliklar leksik ma’nosini farq qila olish tabiatiga ko‘ra alohida o‘rin tutadi. Bu borada leksikograflar oldidagi muhim vazifa perifrastik ma’noni izohlash tamoyillarini ishlab chiqishdan iborat.

Perifrastik birliklar ifodalagan ma’no tabiatini va turiga ko‘ra quyidagicha farqlangan: **perifrazalangan metaforalar**: *barmoq himoyachisi* – angishvona, *ip va ignalar xonimi* – tikuvchi. **Perifrazalangan metonimiylar**: *bezak ustalari* – ganchkorlar, *loy ustasi* – kulollar. **Perifrazalangan sinekdoxalar**: *mohir qo‘llar* – oshpazlar, *qo‘lda yaratilayotgan mo‘jiza* – hunarmandchilik mahsulotlari. **Perifrazalangan toponimlar**: *zardo ‘zlik san’atining beshigi* – Sharq, *kulolchilik san’atining eng boy merosini saqlab qolgan maskan* – O‘zbekiston. **Perifrazalangan antroponimlar**: *Mohir gulband ustasi* – Shoira G‘aniyeva, *Buxoro hunarmandchiligining otaxoni va bilimdoni* – Almeyev Robert Valievich.

Perifrastik lug‘atlar uchun bunday semantik tasniflar leksik izoh, adekvat tahlil va leksikografik tavsifni talab qiladi. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, perifraza sohasida tizimli munosabatlarning alohida turlari mavjud. Jumladan, leksik perifrazalar, frazeologik perifrazalar, sintaktik perifrazalar, logik perifrazalar, sof perifrazalar, kontekstual perifrazalar shular jumlasiga kiradi. Ularda paradigmatic qatorda lug‘aviy o‘zgaruvchanlik ustunlik qiladi hamda sintagmatik munosabatlar darajasida so‘z birikmalarining o‘ziga xosligi ko‘p sonli perifrastik uyalarni tashkil etadi. Ammo perifrazalarning tizimli muammolari sifatida sinonimik munosabatlarning rivojlanmaganligi, omonim va antonimiyaning tadqiq qilinmaganligi perifrazalarni leksikografiyaning maxsus obyekti sifatida o‘rganilmaganligiga asos bo‘la oladi deb baholaymiz.

Ish obyekti bo‘lgan perifrazalar lug‘atini yaratishda lug‘at tuzish ko‘rsatmalarini tahlil etish va leksikografiya borasida olib borilgan tadqiqotlarga tayangan holda lug‘at yaratishning quyidagi vazifalari belgilandi: **Birinchi bosqichda** lug‘atni loyihalashtirish jarayoni amalga oshiriladi, ya’ni lug‘at perifrazalar tanlanadi, tavsiflash aspekti, tanlash mezonlari, lug‘at maqolalarining tuzilish tartibi va shu kabilar aniqlab olinadi hamda yaratilajak lug‘atning asosiy xususiyatlariga doir tasavvurlar shakllantiriladi. **Ikkinchi bosqichda** perifrastik manba – badiiy va publitsistik matnlar tanlab olinadi va tasniflanadi. **Uchinchi bosqichda** lug‘at so‘zligini tashkil qiluvchi perifrazalarning semantik bazasi tasniflanadi. Belgilangan guruhlar asosida perifrazalanayotgan so‘z va perifrazalar tahlil etiladi. Lug‘at maqolasining tartibi va strukturasi belgilanadi.

Bobning ikkinchi bo‘limi “**Perifrazalar lug‘ati tuzilishining asosiy tamoyillari**” deb nomlanadi. Leksikografiya tamoyillari lug‘atlarining turlariga mos ravishda o‘zgarishi mumkin. Har qaysi tamoyilning tayanch vazifasini bajarishi lug‘atning maqsad va ehtiyojidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Tadqiqot obyekti sanalgan perifrazalar lug‘atini ham ma’lum tamoyil va turlarga qarab tasniflash mumkin. Jumladan, 1. Perifrazalarning tasnifi va kontekstualizatsiyasi tamoyili. Ushbu tamoyil perifrazalarni tasniflash va kontekstuallashtirishni anglatadi. Ma’lumki, tasviriylar ko‘lami va hissiy ma’nosini bilan farq qiladi. Shu sababli, lug‘atda berishda matnda ifodalagan dominant va eksplikant birliklarni hisobga olish kerak. 2. Ma’no belgilarini aks ettirish tamoyili perifrazalarning semantik ma’no belgilarini ko‘rsatadi. Semantik jihatdan perifrazalar guruhanishi, bunda badiiy va publitsistik matnlarda berilgan perifrazalarni tushunish va tanlash uchun muhim bo‘lishi mumkin bo‘lgan omillar aniqlanadi. 3. Leksikografik manbalar lug‘at tafsifini boyitish uchun har bir perifraza qanday ma’no tusiga ega ekanligiga aniqlik kiritish uchun muhim tamoyil hisoblanadi. 4. Foydalanish xususiyatlari va ekspressiv belgilari. Bu tamoyil foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari va tasviriylar belgilarni ifodalash bilan birga lug‘atlarda qaysi vaziyatlarda u yoki bu predmet yoki belgiga aynan mos kelishini, shuningdek, qaysi birlik ko‘proq aniq ekspressiv ma’noga ega ekanligini ko‘rsatadi. 5. Sinonimik qatorlar va ma’no belgilarini tamoyili sinonimik qatorlarni yaratish va ma’no belgilarini aniqlash bilan bog‘liq. Lug‘atlarda perifrazalar berilishi, ularning turli kontekstlarda ma’nodoshlari bilan almashtirish mumkinligini ko‘rsatadi, shuningdek, perifrazalarning har biriga qanday nozik farqlar va ma’no belgisi hamroh bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Bobning uchinchi bo‘limi “**O‘zbek tili hunarmandchilik perifrazalarining lug‘atlarda berilishi**” deb nomlanadi. Aksariyat zamonaviy sohaviy lug‘atlar kabi hunarmandlar leksikasi lug‘ati megaqurilmasi ham 1) kirish; 2) lug‘at bilan ishslash bo‘yicha yo‘riqnomasi; 3) lug‘at korpusi; 4) ilova qismlaridan tashkil topadi.

Hunarmandlar perifrazasi lug‘atida har bir perifrazaga berilgan izoh funksional jihatdan qisqa, aniq bo‘lishi, shu sohaga xos ilmiy tushunchani ifodalay olishi kerak hamda yaratiladigan lug‘at quyidagi talablarga javob berishi lozim: **1. Adekvatlik (adekvat semantizatsiya)**. Lug‘at maqoladagi termin-vokabula semantizatsiyasi adresatning maqsadi va kommunikativ akt jarayonida undan samarali foydalanishi uchun zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlar – perifraza semantikasi, faol yoki passivligi, morfologik xarakteristikasi, sintaktik valentligi, umuman, nutqda voqelanishi bilan bog‘liq barcha ma’lumotlarni qamrab olishi, perifraza anglatgan tushuncha mazmuni u ifodalananayotgan obyekt – narsa, predmet haqidagi ilmiy tushunchalarga to‘la mos kelishi zarur. **2. Aniqlik va tushunarlılik**. Perifrazaning nominativ semasi polisemantik xarakterda bo‘lganda matnlar orqali izohlanishi, shu tizimdagagi boshqa tushunchalardan farqlanib turishi lozim. **3. Muvofiqlik, uzviylik**. Hunarmandlar perifrazasi izohi turdosh sohalar – *kashtado ‘zlik, do ‘ppido ‘zlik, zardo ‘zlik, tikuvchilik, gilamdo ‘zlik, to ‘quvchilik, naqqoshlikka* oid sohaviy izohli lug‘atlardagi talqinlar bilan uyg‘un bo‘lishi, izohlarning bir-biriga mutanosibligi ta’minlanishi shart.

Quyida hunarmandchilikning kashtachilik, tikuvchilik, zargarlik, gilamchilik sohalariga oid ayrim perifrastik birliklar keltirilib, tezaurus (ideografik) lug‘atining

namunasi tuzildi. Keltirilgan ma'lumotlar sig'imi katta bo'lganligi va bir jadvalda berishning imkoniyati bo'lmanligi uchun qismlarga ajratilib jadvallarda ko'rsatildi (1.3.(1)-jadvalga qarang):

### 1.3.(1)-jadval

#### Ideografik lug'atda perifrazalar va ularning etimologik izohi

Nº	Perifraza	Etimologik izohi
1	<i>ezgu tilak elchilari</i>	Ezgulik, yaxshilik tilab, niyat qilinib so'zlangan gap va duoni yetkazuvchi, belgi ifodalovchi narsa.
2	<i>sehrli mato</i>	"Sehr" arabcha, ko'pma'noli so'z. U joziba, fusunkor, sehrgarlik, afsun, jodu ma'nolarida qo'llanadi. "Mato" arabcha gazlama, material. Perifraza tarkibida sehr so'zi jobiy ma'no kasb etib, shifo, shifoli mato ma'nosini ifodalaydi.
3	<i>bezaklar toji</i>	Bezak ko'rak, husn ma'nosida qo'llangan. "Toj" so'zi arab tilidan kirib kelgan bo'lib, dastlab, "gulchambar", so'ngra "gultoj", "toj" ma'nolarida ishlatilgan. Qadimdan podshohlarning hukmronlik belgisi sanlagen va qimmatbaho dur-u gavharlar bilan ziynatlangan. Shu qiyos asosida perifrazalangan.
4	<i>boy chavandozning ayili</i>	"Boy" mol-dunyosi ko'p, badavlat kishiga nisbatan qo'llangan. "Chavandoz" forschadan kirib kelgan so'z bo'lib, chaqqon, chapdast ma'nosini beradi; "ayil" egarning ust qismi bilan otning qornidan aylantirib bog'lanuvchi ip (tasma, kamar).

Quyidagi jadvalda perifrazalangan so'zning etimologiyasi keltirildi va shu asosda perifrazalash hosil bo'lganligi izohlandi (1.3.(2)-jadvalga qarang):

### 1.3.(2)-jadval

#### Perifrazalangan so'zning etimologik izohi

Nº	Mavzuviy guruhi	Perifraza	Izoh	Etimologik izohi
1	kashtachilik	ezgu tilak elchilari	<i>so'zana</i>	<i>tojikcha so'zan – "igna"</i> <i>so'zidan, aynan: "ignaga oid", "igna bilan tikilgan".</i>
2	tikuvchilik	sehrli mato	<i>ipakdan tayyorlangan mato</i>	<i>xitoycha – "serikum" – ipak.</i> <i>"seriko" – ipakchilik.</i>
3	zargarlik	bezaklar toji	<i>tillaqosh</i>	<i>tojikcha /o'zbekcha. Tilla – "oltin" qosh.</i>
4	gilamchilik	boy chavandozning ayili	<i>gilam</i>	<i>arabcha, tojikcha, turkcha;</i> <i>"ayiq terisi" (arab.-toj.);</i> <i>Turkcha "boy chavandozning ayili" (jul – "egar tagidagi to'shama", hirs – "boy odam").</i>

Quyida lug'atning davomi sifatida tanlab olingan mavzuviy guruhlarga oid perifrazalarning perifrastik sinonimlari berildi (1.3.(3)-jadvalga qarang):

### 1.3.(3)-jadval

#### Ideografik lug‘atda perifrastik sinonimlarning ifodalananishi

Nº	Mavzuviy guruh	Perifraza	Perifrastik sinonimlari
1	kashtachilik	<i>ezgu tilak elchilari</i>	<i>baxt elchisi, badiiyat nafosati</i>
2	tikuvchilik	<i>sehrli mato</i>	<i>olov mato, his-tuyg ‘ular jilvasi</i>
3	zargarlik	<i>bezaklar toji</i>	<i>bosh bezagi, peshona shingili</i>
4	gilamchilik	<i>boy chavandozning ayili</i>	<i>ayiq terisi, julhirs, julvaraq</i>

Quyida berilgan jadvalda perifrazalananayotgan so‘zning leksik sinonimlari ifodalangan (1.3.(4)-jadvalga qarang):

### 1.3.(4)-jadval

#### Perifrazalangan so‘z leksik sinonimlarining ifodalananishi

Nº	Mavzuviy guruh	Perifraza	Izoh	Leksik sinonimlari
1	kashtachilik	<i>ezgu tilak elchilari</i>	<i>so ‘zana</i>	<i>Devorga osiladigan bezak buyumi, gulko ‘rpa</i>
2	tikuvchilik	<i>sehrli mato</i>	<i>ipakdan tayyorlangan mato</i>	<i>shohlar matosi, haroratni asrovchi</i>
3	zargarlik	<i>bezaklar toji</i>	<i>tillaqosh</i>	<i>bargak (Farg‘ona), abru bolo (Buxoro), osmatuzi (Xorazm)</i>
4	gilamchilik	<i>boy chavandozning ayili</i>	<i>gilam</i>	<i>to ‘shama, to ‘shak</i>

Quyida keltirilgan jadvalda perifrazalarning uslubiy qo‘llanishiga ko‘ra, qo‘llanilish darajasiga ko‘ra, konnotativ (ekspressiv, emotiv, baholovchi) xususiyatlari ko‘ra munosabatlari tahlili berildi (1.3.(5)-jadvalga qarang):

### 1.3.(5)-jadval

#### Hunarmandchilik perifrazalarining uslubiy qo‘llanish darajasi, konnotativ xususiyatlari tahlili

Nº	Perifraza	Uslubiy qo‘llanish xususiyatlari (so‘zlashuv (SU), publitsistik (PU), ilmiy (IU), badiiy (BU), rasmiy (RU) uslublar)					Qo‘llanilish darajasiga ko‘ra (chegaralangan/ chegaralanmagan)			Konnotativ (ekspressiv, emotiv, baholovchi) perifrazalar		
		SU	PU	IU	BU	RS	Ch.gan	Ch.magan	Eks	Emot.	Bah.	
1	<i>ezgu tilak elchilari</i>	+						+	+			
2	<i>sehrli mato</i>	+						+		+		
3	<i>bezaklar toji</i>				+		+		+			
4	<i>boy chavandozning ayili</i>	+						+			+	

Navbatdagi jadvalda perifrazalarning grammatik tarkibi tahlili ketirilgan. Ideografik lug‘atning mazkur tasnifida perifrazaning morfologik tarkibi, perifraistik birikmaning tuzilishi, tobe so‘zning hokim so‘zga bog‘lanish usuli, hokim so‘zning ifodalanish turkumi bilan bog‘liq qirralarga ahamiyat qaratilgan (1.3.(6)-jadvalga qarang):

### 1.3.(6)-jadval

#### Perifrazalarning grammatik tarkibi tahlili

Nº	Perifraza	PBning morfologik tarkibi	PBning tuzilishi
1	<i>ezgu tilak elchilari</i>	sifat+ot+ot	<i>murakkab birikma: ezgu (tobe) tilak (hokim) – tobening hokimga bog‘lanish usuliga ko‘ra bitishuvli, hokimning so‘z turkumiga ko‘ra otli;</i> <i>ezgu tilak (tobe) elchilari (hokim) – tobening hokimga bog‘lanish usuliga ko‘ra bitishuvli, hokim qismning ifodalanishiga ko‘ra otli</i>
2	<i>sehrli mato</i>	sifat+ot	<i>sehrli (tobe), mato (hokim) – tobening hokimga bog‘lanish usuliga ko‘ra bitishuvli, hokim qismning ifodalanishiga ko‘ra otli</i>
3	<i>bezaklar toji</i>	ot+ot	<i>bezaklar (tobe), toji (hokim) – tobening hokimga bog‘lanish usuliga ko‘ra moslashuvli, hokim qismning ifodalanishiga ko‘ra otli</i>
4	<i>boy chavandozning ayili</i>	sifat+ot +ot	<i>murakkab birikma: boy (tobe) chavandoz (hokim) – tobening hokimga bog‘lanish usuliga ko‘ra bitishuvli, hokim qismning ifodalanishiga ko‘ra otli birikma;</i> <i>boy chavandozning (tobe) ayili (hokim) – tobening hokimga bog‘lanish usuliga ko‘ra moslashuvli, hokim qismning ifodalanishiga ko‘ra otli</i>

Xulosa shuki, lisonda imkoniyat bo‘lib, nutqda voqelanish zaruratini ifodalab turuvchi har qanday birlik lisoniy paradigmatic hamda sintagmatik munosabatda “yashaydi” va nutqda ma’lum vaziyatda, o‘rinda akslanishga ehtiyoj sezadi.

## XULOSA

1. Perifrazalarning terminologik apparati va tasnifini yoritishda lingvistik xususiyatlariga tayaniladiki, bunda perifraza dominant, eksplikant, element tarkibiy qismlaridan iborat bo‘ladi. Ular, odatda, majoziylikni aks ettirib, to‘g‘ridan to‘g‘ri nomlanmagan tushunchalarni yoritishda qo‘llaniladi. Shuningdek, perifrazalar muayyan tushunchalarni aniq, yorqin va obrazli shaklda ifodalash xususiyatini namoyon etadi.

2. Perifrazalarning ma’noviy, grammatik, tarixiy o‘zgaruvchanlik, lingvokulturologik, psixolingvistik jihatlari ham mavjud. Bu borada perifrazalarga xos mezonlar quyidagilar: stilistik qurilma; tavsiflovchi ikkinchi darajali nominatsiya; tasvirlangan obyektning alohida sifatini ta’kidlaydi; ekspressiv xarakterga ega; nutq matnining ifodaviyligini oshiradi; obyektning ma’lum bir xususiyatiga urg‘u beradi va obrazlilik asosiga quriladi.

3. Hunarmandchilikda soha vakillari nutqida uslubiy vositalardan perifraza, ibora, sifatlash, o‘xshatishlar; xalq folklorining maqol va topishmoq janri namunalarida ham hunarmadchilik turlari, mehnat qurollari, ish jarayoni bilan bog‘liq birliklarning ishtiroki kuzatiladi.

4. Lingvokulturologiyaning obyekti tilshunoslik va madaniyatshunoslik kabi bir qator fundamental fanlar kesishmasida joylashganki, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi perifraza, ramz, mifologema, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, pretsedent birliklar, nutqiy etiketlar eng asosiy *lingvomadaniy birliklar* hisoblanadi. O‘zbek hunarmandchiligida “ramz” tushunchasi alohida o‘rin tutadi, chunki ramzlar madaniyatda chinakam o‘ziga xosligi, sirli ma’nolar olamini subyekt va pragmatik munosabatlar olami bilan bog‘laydi. Hunarmandchilikka oid perifrazalar tarkibi semiotik kodlarga boyligi bilan xarakterlanadi. Aksariyat hollarda hunarmandchilikning kashtachilik, gilamchilik kabi sohalarida ayrim nomlarning madaniy kodlashganini kuzatish mumkin.

5. Til va madaniyat ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan axborotni saqlash, avloddan avlodga uzatish, madaniyatlararo muloqotni yuzaga keltirish va uni rivojlantirish xususiyatiga ega bo‘lgan qiymatli hodisadir. Til birliklarini o‘rganishning lingvistik-madaniy xususiyatlari etalon predmetlar, hodisa va obyektlarga xos jihat hamda sifatini baholovchi moddiyiliklar tarzida baholanadi. U ijtimoiy-ruhiy bosqichda me’yoriy, obrazli tasavvurni ifodalaydi. Obrazlilikning barcha shakllari – xoh lisoniy, xoh nutqiy bo‘lsin, perifrazalarga ehtiyoj sezadi.

6. Leksik birliklar tilda turli semantik munosabatlar asosida har xil paradigmalar hosil qilgan holda mavjud bo‘ladi. Graduonimik, giponimik, partonimik munosabatlar ana shunday lisoniy munosabat turlaridirki, hunarmandchilikka oid birliklarning ma’no guruhlari markazidagi leksemalarga ham xuddi shu munosabatlar xos. Hunarmandchilik leksikasi tilning maxsus birliklari qatoridan o‘rin oladi.

7. Til o‘ziga xos murakkab tizim, uning birliklari tartibli tarzda yashaydi. Avvalo, muayyan til egalari ongida o‘sha tilga mansub leksemalar o‘zaro paradigmatik (o‘xshashlik) hamda sintagmatik (qo‘schnichilik) munosabatlarda mavjud bo‘ladi. Hunar leksemasi, bir tomonidan, zargarlik, kashtado‘zlik, kulolchilik leksemalari bilan kasb nomini ifodalasa, ikkinchi tomonidan, zardo‘z, kashtado‘z, kulol leksemalari orqali shaxs otini ifodalaganlik bilan sintagmatik paradigma hosil qilib yashaydi. Paradigmadagi bir a’zoning mohiyati unga paradigmadosh boshqa a’zoning mohiyatiga qiyosan olinadi, unga muayyan munosabatda bo‘ladi.

8. Lingvokulturologiya doirasiga ramziy ma’noga ega bo‘lgan va madaniy ma’lumotlarni aks ettiruvchi har qanday til birliklari (frazeologik birliklar, paremiologik birliklar, maqollar, aforizmlar, qanotli so‘zlar, ramzlar va b.) kiradi.

Til madaniyatining milliy o‘ziga xosligini o‘rganish va samaradorligi uchun perifrazalar asosiy birlik sanaladi. Perifrazalar lingvomadaniy doirada voqelikni etnik-madaniy idrok etish xususiyatlarini aniqlash uchun til birliklarini birlashtirishga imkon beradi.

9. Tadqiqotda ilk bor perifrazalar lug‘atini shakllantirish tamoyillari aniqlandi. Perifraza lug‘atini ushbu jihatdan tavsiflash uchun quyidagi belgi turlarini qo‘llash mumkin: ma’noviy, etimologik jihatiga ko‘ra; uslubiy qo‘llanish xususiyatlari ko‘ra (oddiy so‘zlashuv yoki ijtimoiy-funksional; ilmiy yoki maxsus; publisistik – ommaviy muloqot sohasida; adabiy-badiiy; turli xil rasmiy hujjatlar – e’lon, taklifnama, xabarnomaga xos bo‘lgan perifrastik birikmalar); qo‘llanilish darajasiga ko‘ra (chegaralangan/chegaralanmagan perifrazalar; vaqtinchalik qo‘llaniladigan perifrazalar (iste’moldan chiqqan yoki chiqayotgan perifrastik birliklar va tilga yaqinda kirib kelgan perifrastik birliklar); konnotativ semasiga ko‘ra (ekspressiv, emotiv, baholovchi) perifrazalar.

10. Perifrazaga oid grammatik ma’lumot uning grammatic tuzilishi ichki va tashqi xususiyatlarini ko‘rsatishdan iborat bo‘lishi lozim. Birinchi tur (ichki) xususiyati – bu perifrazaning morfologik shakllanganligi va morfologik paradigmatisining o‘ziga xosligini ifodalasa, perifrastik birikmaning ikkinchi tashqi xususiyati – bu matnning boshqa so‘zleri bilan birikuvchanligi, perifraza tarkibiy qismlarining (to‘g‘ri yoki teskari) joylashuv tartibi sanaladi. Bular ham lug‘atni shakllantirishda asosiy belgilar vazifasini o‘taydi.

11. Ko‘pma’nolilik hamda zid munosabatlilik perifrastik birikmalar uchun deyarli tegishli emas, bu perifrastik ma’noning o‘ziga xosligi bilan izohlanadi. Perifrastik ma’no uchun xos jihat shakldoshlik hamda ma’nodoshlik munosabatlari bilan baholanadi.

12. Lisonda imkoniyat bo‘lib, nutqda voqelanish zaruratinini ifodalab turuvchi har qanday birlik lisoniy paradigmatic hamda sintagmatik munosabatda “yashaydi” va nutqda ma’lum vaziyatda, muayyan o‘rinda akslanishga ehtiyoj sezadi. Zotan, semantik jihatdan serqirra bo‘lgan perifrastik birliklarning mavzuviy (ideografik), tezaurus lug‘atlarini tuzish va shakllantirish muhim amaliy ahamiyatga ega.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/04.06.2021 Fil.72.09  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ  
БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ  
БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

---

**АХМАДОВА УМИДАХОН ШАВКАТ КИЗИ**

**СОЦИОПРАГМАТИЧЕСКИЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ  
ОСОБЕННОСТИ ПЕРИФРАЗ РЕЧИ РЕМЕСЛЕННИКОВ**

**10.00.01 – Узбекский язык**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора (DSc) филологических наук**

**Бухара – 2026**

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована под номером B2023.2.DSc/Fil538 в Высшей Аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Докторская диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на сайте Научного совета ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный консультант:**

**Абузалова Мехринисо Кадировна**

доктор филологических наук (DSc), профессор

**Официальные оппоненты:**

**Жураева Бибиш Мухсиновна**

доктор филологических наук (DSc), профессор

**Раупова Лайло Рахимовна**

доктор филологических наук (DSc), профессор

**Абдиев Муродкосим Болбекович**

доктор филологических наук (DSc), профессор

**Ведущая организация:**

**Каршинский государственный университет**

Зашита диссертации состоится «13 » января 2026 года в 10:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 по присуждению ученых степеней при Бухарском государственном университете. (Адрес: 200118, г. Бухара, ул. М.Икбала, 11. Тел.: +99865 221-29-14; факс: +99865 221-27-07, e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета. (зарегистрировано под номером 841). (Адрес: 200118, г. Бухара, ул. М.Икбала, 11. Тел.: +99865 221-29-14).

Автореферат диссертации разослан «26 » декабря 2025 года.

(Реестр протокола рассылки № 29 от «26 » декабря 2025 года.)



**Ё.С. Сайдов**

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

**А.Р. Ахмедов**

Секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, кандидат филологических наук, профессор

**Б.Э. Киличев**

Заместитель председателя научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора (DSc) наук)**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире происходящие процессы глобализации отражаются не только в изменениях в жизни человечества, но и в языке, специфическом для коммуникативной функции. Лексика отрасли также тесно связана с историей народа и историей языка и является языковым источником, отражающим особенности национального языка, экономической и социальной жизни народа, культурных и духовных отношений. Проблемы использования períфраз и сопутствующих им методологических средств всегда привлекали ученых всего мира, что не потеряло своей актуальности и по сей день. Кроме того, важность всестороннего изучения явления перифразы становится особенно очевидной в последнее время, когда лингвисты все больше внимания уделяют взаимоотношениям языка и культуры. В связи с тем, что номинационные явления (такие как перифразы, эвфемизмы), связанные со вторичным именованием, более заметно и ярко отражают культурные ценности нации и происходящие в обществе изменения, чем основные номинационные единицы, этим вторичным именованиям уделяется особое внимание.

В мировой лингвистике ремесленная лексика, выражающая ремесло, в частности, образные выражения, используемые в связи с деятельностью ремесленников, играют особую роль в решении ряда вопросов, связанных с историей развития и формирования языков и диалектов. В связи с тем, что в перирафтических единицах ярко отражаются идеально-политический, экономико-культурный, этнический состав и происхождение определенного народа, а также аспекты, связанные с другими явлениями, перифраза (изобразительное выражение), используемая в общении ремесленников, важна тем, что предоставляет важную информацию о языке и культуре представителей данной профессии. Это, в свою очередь, определяет необходимость изучения лингвокультурной единицы, приобретающей индивидуальность в речи каждого социального слоя, то есть перифраз как изобразительного средства, украшающего речь, и глубокого изучения ее особенностей.

Профессиональные термины в узбекском лексическом пласте, в том числе перифразы, предназначенные для обозначения определенного признака предмета новым наименованием, также не являются продуктом определенного исторического периода, они формировались и активизировались в языке на протяжении веков. Прагматические особенности описательных речевых выражений, косвенно называющих конкретный предмет, событие, реальность или понятие, сильнее, когда это уместно, чем основные номинативные единицы. Кроме того, их функции оценки и воздействия более точны, что позволяет быстро достичь желаемого результата. Эти языковые средства, обладающие лингвокультурными признаками, играют важную прагматическую роль в речевом общении. «В сегодняшнюю эпоху глобализации естественно, что каждый народ, каждое независимое государство уделяет приоритетное внимание обеспечению своих

национальных интересов, прежде всего, сохранению и развитию своей культуры, древних ценностей и родного языка”<sup>1</sup>. В связи с этим требуется изучение таких вопросов, как интерпретация языковых единиц, связанных с ремеслами, которые совершаются сегодня в связи с развитием техники, генетические источники языка отрасли, факторы обогащения, лексикографическое описание перифраз, которые считаются вторыми именователями лексического слоя, связанного с ремеслами, лингвокультурные аспекты, что определяет актуальность и востребованность темы.

Научные результаты данной диссертации в определенной степени служат реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-5850 «О мерах по коренному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка» от 21 октября 2019 года, № УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в нашей стране» от 20 октября 2020 года, № УП-6097 «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года» от 29 октября 2020 года, № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-4539 «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию ремесленничества и поддержке ремесленников» от 28 ноября 2019 года, Послании Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева Олий Мажлису и народу Узбекистана от 12 декабря 2022 года, а также в других нормативно-правовых документах.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства»

**Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации<sup>2</sup>.** Научные исследования, направленные на изучение перифразеологии и текста в социально-прагматическом аспекте, проводятся в ведущих научных центрах и высших учебных заведениях мира, в частности, Cambridge University, University of Oxford, London Metropolitan University (Великобритания), Toronto University (Канада), Московском государственном университете имени М.В. Ломоносова (Россия), Санкт-Петербургском университете (Россия),

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni// 2019-yil 21-oktabr. <https://lex.uz/docs/4561730>

